

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NAZAROVA G.G', AZIMOV A.E., ADILOVA Z.D.

XALQARO DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT – 2009

Nazarova G.G., Azimov A.E., Adilova Z.D., Eshtaev A.A., Yusupov A.S.
Xalqaro diplomatik munosabatlar. o'quv qo'llanma, 2009 y. – 125 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada davlat diplomatiyasi, uning asosiy shakllari va tamoyillari, diplomatiyaning paydo bo'lishi va tarixiy ko'rinishlari, hozirgi zamон diplomatiyasi va diplomatik xizmati, xalqaro munosabatlar, diplomatiyaning nazariy tamoyillari va amaliyoti - dunyo mamlakatlari tajribalari hamda mavjud xronologik materiallar asosida yoritilgan.

Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan mazkur o'quv qo'llanma o'qituvchilar, talabalar, shuningdek xalqaro diplomatiya siyosati va san'ati bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: *Hakimov N.H. – G.V.Plexanov nomidagi RIA ning*

Toshkent shahridagi filiali

prorektori,

professor, t.f.d.

Xalilov X.X. – TDIU “Jahon iqtisodiyoti va XIM”

kafedrasi dostenti, i.f.n.

Fayzieva K.K. – JIDU “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasi

dostenti, i.f.n.

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Ilmiy kengashi oliy o'quv yurti
bakalavrлari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etadi.*

© Nazarova G.G., Azimov A.E., Adilova Z.D., Eshtaev A.A., Yusupov A.S., -
“Xalqaro dipplomatik munosabatlar”. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2009 y. – 125 bet.

MUQADDIMA

Jahon taraqqiyoti o'zining hozirgi bosqichiga birdaniga va uzoq kurashlarsiz etib kelgani yo'q. Buning uchun davlatlarning xalqaro munosabatlari, tashqi siyosati va diplomatiyasi taraqqiyotidagi muhim o'zgarishlarni eslab o'tish kifoya. Insoniyat jamiyatining rivojlanishiga har bir davlatning tashqi aloqalarida diplomatiya muhim o'rinni tutadi. Bu hol tushunarlidir, chunki ushbu diplomatiya ko'p hollarda butun bir xalq va davlatlarning takdirini belgilaydi. Ayrim hollarda butun bir xalq hukumdorning idorasiga ko'ra o'zaro bahsga kirishar va nizolarni kuch vositasida hal qilishar edi. Butun tashqi siyosat va diplomatiya quzdorlik, feodal va burjua davlatlari orasidagi o'zaro urushlarga asoslanar edi. Mazkur davlatlarni boshida turgan guruuhlar o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun tashqi siyosat va diplomatiyadan foydalanganlar.

Bugungi kunda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar – tashqi siyosat va diplomatiyada alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur muammolarni hal etishda turli mintaqalardagi xalqlarning sa'iy harakatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin mazkur xalqlarning manfatlari bu masalalarning hal qilinishiga bog'liq.

“Sovuq urush” davrining barham topishi va sobiq SSSRning tarqalib ketishi hamda uning o'rnida yangi suveren davlatlarning paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan yangi shart–sharoitlar xalqaro taraqqiyot, shuningdek tashqi siyosat va dunyo davlatlari diplomatiyasi sohasida yangi qoidalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Shu o'rinda davlatlar o'rtasidagi munozarali masalalarning tinchlik yo'lli bilan hal etilishi va dunyoga xavf solishi mumkin bo'lgan yangi jahon urushlari xavfini batamom yo'qotish haqida so'z bormoqda. Hozirgi paytda bu vazifaning dolzarbliги urushlar va qurolli to'qnashuvlarning ro'y berib turishi bilan izohlanadi. Dunyoda vujudga kelgan ob'ektiv sharoitlar davlatlarning tashqi siyosatida munozarali xalqaro masalalarni tinch yo'l bilan hal qilish va kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf qilishni taqoza etmoqda. Ana

shunday vositalardan biri tashqi siyosatning asosiy quroli bo'lmish diplomatiya va uning xalqaro masalalarini tinch yo'l bilan hal etish usullaridir. Bu jarayon davlatlarning tinch yashashi doirasida olib boriladi. Haqiqiy diplomatiya - davlatlararo muzokaralar, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan konferenstiyalarda, shuningdek keng xalq ommasining milliy va xalqaro tashkilotlardagi ishtirokida o'z aksini topmoqda.

Diplomatiya faoliyati barcha davatlarda mavjud bo'lgan markaziy va chet eldag'i organlardan iborat diplomatik apparat (tashqi ishlar vazirliklari, elchixonalari, missiyalar va konsuliklar) da xizmat qiluvchi alohida tanlangan va tayyorlangan diplomatik kadrlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Mazkur kadrlarning faoliyati, markaziy va tashqi aloqalar idoralarning ish tizimi, aynan davlat diplomatik xizmatini tashkil qiladi.

Diplomatik apparat – davlat apparatining ma'lum bir qismi bo'lib uning faoliyat yo'nalishi va mazmuni davlatning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy qurilishi bilan belgilanadi.

Diplomatik apparatni takomillashtirish, kadrlarni tanlash va tayyorlash, bu boradagi tajribalarini puxta o'rganish va amaliyotda qo'llash, xalqaro muammolarni diplomatik vositalar asosida tinch yo'l bilan hal qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish butun dunyo davatlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Shuni ta'kidlash joizki, so'nggi o'n yilliklarda diplomatik xizmat miqyoslari ancha kengaydi va bu sohadagi ishlar yanada murakkablashib bordi. Tashqi siyosat bilan bog'liq yirik muammolarni hal qilish davlatlarning diplomatik apparat va hukumatidangina emas, balki ulardagi xalqlar manfatlarini yo'naltira oladigan davlat rahbarlaridan bu masalaga kompleks yondashish va faol ishtirok etishni talab etadi. Shu munosabat bilan xalqaro tinchlik siyosatining muhim muammolari bo'yicha yuksak darajadagi uchrashuvlar, kengashlar va davlat rahbarlarining tashriflari asosida olib boriladigan muzokaralar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik xizmati yildan – yilga takomillashib bormoqda. Chunki, yosh suveren davlat bo'lgan O'zbekiston jahon miqyosida mustaqil tashqi siyosat olib bormoqda va uning pozistiyasi regional va dolzarb masalalar bo'yicha qaror qabul qilinishi jarayonida hisobga olinmoqda. O'zbekiston singari yosh davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati hozirgi paytda regional va jahon miqyosida xalqaro munosabatlarning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Buni hisobga olmay turib mamlakatning tashqi siyosati bilan bog'liq voqealarni to'g'ri tushunish va idrok qilish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati uning milliy mustaqilligi, siyosiy va iqtisodiy erkinligi, suverinitetini mustahkamlash va keskin ijtimoiy – siyosiy muammolarni muvvaffaqiyatli hal qilish uchun katta ahamiyatga egadir. O'zbekistonning xalqaro munosabatlar sohasida erishgan tajribasi shuni ko'rsatadiki, mustaqil tashqi siyosat olib borish, uning asosiy yo'naliishlari va ustivorliklarini belgilash, tinch totuv yashash tamoyillariga sodiq qolish, teng huquqli munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni keng yo'lga qo'yish bilan bog'liq tashqi muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng, mamlakatimizdagi xalqlarning qonuniy huquqi – o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqi amalga osha boshladi. Aynan, davlat mustaqilligiga erishish, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy ittifoqlarga a'zo bo'lish O'zbekistonga ana shunday imkoniyatlarni ohib berdi.

Mustaqillikka erishgan boshqa yosh davlatlar singari O'zbekiston uchun ham tinchlik, chegara va ko'shni davlatlar bilan yaqin qo'shnichilik munosabatlarini yo'lga qo'yish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi va uning keyinchalik mavjud bo'lishi, rivojlanishi, uning xalqaro miqyosida tan olinishi- mustaqil ichki siyosat olib borishning muhim garovidir. Hozirgi paytda respublikada olib borilayotgan tashqi siyosat uning milliy manfaatlariga muvofiq bo'libgina qolmay, balki mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklarni

muvaffaqiyatli engish, xalq turmush darajasini yaxshilashning muhim vositasi va zaruriy sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati uning ichki siyosati bilan uyg'undir. Mustaqil tashqi siyosatning olib borilishi ko'p davlatlar bilan keng qamrovli va ko'p tomonlama hamkorlik qilish demokratik kuchlarning mustahkamlanishiga imkoniyat yaratmoqda.

Hozirgi kunda mustaqil O'zbekiston xalqaro miqyosda harakat kilmoqda. Mustaqillik yillarida tashqi siyosat bilan bog'liq bir qator hujjatlar, shartnoma va bitimlar imzolandi. Ko'pgina xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama diplomatik vakolatxonalar ochish jarayoni davom etmoqda.

1-Bob. Davlat diplomatiyasi, uning asosiy shakllari va tamoyillari

1.1. Diplomatianing paydo bo'lish tarixi va shakllari

Turli davrlar, hatto turli qabilalar o'rtasidagi sodda ko'rinishdagi tashqi aloqalar eng qadimgi davrlarda ham mavjud bo'lgan. Biroq qabila tuzumidagi tashqi aloqalarning bunday sodda shakllari qabila tuzumidan jamiyatning sinflarga ajralishi va davlatlar paydo bo'lzunga qadar mavjud bo'lib, ularni diplomatiyaning dastlabki ko'rinishi sifatida talqin qilish mumkin. Lekin uni aynan diplomatiya deb baholash mumkin emas. Diplomatiyaning tom ma'noda paydo bo'lishi, sodda tarzda ham qadimda o'z shakliga yaqin ko'rinishda uchragan. Uning paydo bo'lishini davlatlarning vujudga kelishi bilan bog'lash to'g'riroq bo'ladi. Shu bilan birga muayyan organlar va mansabdor shaxslarning faoliyati ham bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Diplomatiya - davlatlarning vujudga kelgan davrining mahsulidir. Bu holat diplomatiyaning asl mohiyatini belgilaydi. Diplomatiya hukumron doiralarning faoliyatini ifoda etib, mazkur tabaqaga mansub davlat tashqi siyosatini amalga oshirgan.

Jamiyatning tarixiy taraqqiyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy informastiyaning almashinushi tashqi siyosat va diplomatiyaning mazmuni, shakli va usullarining o'zgarib borishini ta'minlagan. Quldarlik jamiyatining qay tarzda feodal jamiyatiga o'tganligini hisobga olgan holda bu davrlarning har biriga xos bo'lgan tashqi siyosat va diplomatiyaning xususiyatlari shakllanib borgan.

Diplomatiyaning tarixiy taraqqiyotini o'rganish asosiy ijtimoiy-iqtisodiy farmastiyalarning rivojlanishi bilan bog'liqlikda olib borilishi lozim.

1.2. Hozirgi zamon diplomatiyasи va diplomatik xizmati

Diplomatik xizmat davlat xizmatining muayyan turi bo'lib, o'z spesifikasi va xususiyatlariga ko'ra davlat xizmatlarining boshqa turlaridan farq qiladi. Diplomatik xizmatning bu spesifikasini, diplomatiya nima ekanligini

aniqlamay turib idrok etish qiyin. Shuning uchun ham qo'llanmada birinchi navbatda "diplomatiya" tushinchasini aniqlab olishga e'tibor beriladi.

Xalqaro hayot bilan bog'liq voqealar o'rganilar ekan tashqi siyosat, diplomatiya, diplomatik xizmat tushinchalari qo'llaniladi. Ko'p hollarda bu tushinchalar bir xil ma'noni ifodalaydi deb tushiniladi. Diplomatiya tushinchasi ko'pincha turli ma'nolarda, ba'zan o'z ma'nosidan yiroq bo'lgan tushinchani ifodalash uchun qo'llaniladi. Taniqli ingliz diplomati va olimi G. Nikolson ta'kidlaganidek, "diplomatiya" atamasi so'zlashuv tilida bir qator ma'nolarni anglatadi. Ba'zan u "tashqi siyosat" ning sinonimi sifatida ham qo'llanadi. Boshqa hollarda esa muzokara ma'nosini anglatish uchun foydalaniladi.

1.3. Xalqaro munosabatlар ва diplomatiya

"Diplomatiya" tushinchasini belgilovchi ma'lum fikrlarni ko'rib o'taylik. Ingiliz diplomatiyasining taniqli arbobi E. Satou diplomatik amaliyat bo'yicha qo'llanma yozar ekan, "diplomatiya" tushinchasini shunday izohlaydi: "Diplomatiya - mustaqil davlatlar hukumatlari o'rtaсидаги rasmiy aloqalar olib borishda aql idrok va mulozamatni qo'llay olishdir".

XIX asr boshida Franstiyada nashr qilingan "Diplomatianing to'la kursi" nomli kitobida G. Garden bu tushinchani quydagicha izohlaydi: "Diplomatiya atamasi keng ma'noda tashqi aloqalar yoki tashqi ishlar haqidagi fandir, tor ma'noda esa bu muzokoralar yuritish san'ati demakdir".

Bayon qilinganlarga asoslanib, shunday xulosa qilish mumkin: diplomatik xizmat-markaziy apparat va xorijdagi vakolatxonalardagi diplomatik kadrlarning davlat diplomatiyasi vazifalarini bajarishi bo'yicha faoliyati tizimidan iboratdir.

Diplomatiya va diplomatik xizmat davlatlarning xalqaro munosabatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning birisiz ikkinchisining mohiyatini tushinish qiyin.

Diplomatiyani tashqi aloqalar organlari va davlat rahbarlarining davlat milliy faoliyati sifatida ta'riflanadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, davlat diplomatiyasi va diplomatik xizmatida milliy manfaatlar mazkur davlatning

barcha boshqa davlatlar va mamlakatlar bilan o'zaro aloqalarida, ularning ijtimoiy tuzumidan kat'iy nazar, o'zgarishsiz qoladi.

Shunday savol tug'ilishi mumkin: Ijtimoiy tuzumidan qat'iy nazar davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda shakl va usullar har xilligini qanday izohlash mumkin? Amaliyot shuni ko'rsatadiki, davlatlar diplomatik faoliyatining asosiy shakllari, usullari va ustuvor tamoyillarida bir qator farqlar ko'rindi.

Agar xalqaro munosabatlar va xususan, ularning hozirgi davrdagi muayyan tarixiy ko'rinishlari tahlil qilinmasa, diplomatiya va diplomatik xizmat tahlili to'la amalga oshirilmagan bo'lur edi.

Hozirgi paytda xalqaro munosabatlarning to'rt turi aniqlangan.

1. Turli ijtimoiy tizimdagи davlatlar o'rtasidagi munosabatlar.
2. Bir xil ijtimoiy tizimdagи davlatlar o'rtasidagi munosabatlar.
3. Mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan yangi davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar;
4. Islomiy-monarxiya tuzumiga asoslangan davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlari.

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan insoniy jamiyatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy formastiyalari taraqqiyoti bilan bog'liq holda diplomatiyaning tarixiy rivojlanishini inobatga olishimiz lozim.

Bobning qisqacha mazmuni

Diplomatiyaning paydo bo'lishini davlatlarning vujudga kelishi bilan bog'lash to'g'riroq bo'ladi. Shu bilan birga muayyan organlar va mansabdor shaxslarning faoliyati ham bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Diplomatiya - davlatlarning vujudga kelgan davrining mahsulidir. Diplomatik xizmat davlat xizmatining muayyan turi bo'lib, o'z spesifikasi va xususiyatlariga ko'ra davlat xizmatharining boshqa turlaridan farq qiladi. Diplomatiya va diplomatik xizmat

davlatlarning xalqaro munosabatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning birisiz ikkinchisining mohiyatini tushinish qiyin.

Tayanch iboralar: davlat tashqi siyosiy faoliyatida diplomatiyaning roli va o'rni, diplomatiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari, davlatlar diplomatik vakillarining ish yuritish uslubi, tashqi siyosiy faoliyatning davlat rivojlanishidagi ahamiyati, tashqi siyosat yo'nalishlari.

Nazorat savollari:

1. Diplomatiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari va asosiy tiplari haqida gapirib bering?
2. Tashqi siyosatda "xalqaro diplomatiya" ning o'rni va roli nimadan iborat?
3. Zamonaviy sharoitda tashqi siyosatga xos xususiyatlarni tushuntirib bering.
4. Taniqli siyosatchilar tomonidan berilgan ta'riflarga muvofiq diplomatiya tushunchasining lug'aviy ma'nosini tushuntiring?

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: "O'zbekiston", 1997.
2. Israelyan V.L. Diplomati listom k listu. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1990.
3. Qosimov A.M. Diplomatik va konsullik xizmati. - Toshkent, 1998.
4. Щетинин V.D. Ekonomicheskaya diplomatiya: Uchebnoe posobie. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2001.
5. Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.
6. Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy sterimonal i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.

7. Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.mfer.uz

www.jahon.mfa.uz

www.edu.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

www.tseu.uz

www.cer.uz

**2-bob. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini tartibga solishda olyi
idoralarining ahamiyati**

**2.1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining tuzilishi va
faoliyati**

Tashqi ishlar vazirligi bu davlat organi hisoblanib, Vazirlar mahkamasining tarkibiga kiradi.

Vazirlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini hayotga tadbiq etish;
- respublika tashqi siyosatini amalga oshirish;
- davlat va fuqarolarning xalqaro, shuningdek hududiy tashkilotlar bilan aloqalarda mavqeい va huquqlarini himoya qilish;
- xalqaro moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish;
- davlatlararo shartnomalarni tuzish;
- respublika Prezidentining, Oliy majlis raisi, Bosh Vazir hamda vazirlarning rasmiy tashrif bilan chetga chiqishini ta'minlash;
- chet davlatlarda O'zbekiston Respublikasi tashqi va ichki siyosatini targ'ib qilish;
- diplomatik aloqalarni amalga oshirish;
- chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarining faoliyatini nazorat qilib borish;
- respublika ichidagi chet davlatlar elchixonalari, konsulxonalarining immunitetlarini amalga oshirishda imkoniyat yaratib berish;
- davlatlar o'rtasidagi shartnomalarni qayd etish va mavzularni rasmiy tarjima qilish;
- pasport – viza hujjatlarini tasdiqlashdan iborat.

Vazirlik tizimiga markaziy apparat, elchixona, missiya, konsulxona, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini, diplomatik xizmat turlari kiradi.

Tashqi ishlar vazirini Prezident, Oliy majlis tasdiqlagandan keyin tayinlaydi.

Tashqi ishlar vazirligining tarkibi va mavqeい quyidagicha:

1. Vazir.
2. Vazirning muovinlari.

3. Alovida topshiriqlar bo'yicha elchi.
4. Alovida topshiriqlar bo'yicha elchi xodimlari.
5. Vazir maslahatchisi.
6. Davlat protokol boshqarmasi.
7. Kotibiyat.
8. Konsullik boshqarmasi.
9. Amerika bo'limi.
10. Evropa bo'limi.
11. MDH bo'limi.
12. Osiyo va Afrika bo'limi.
13. Osiyo-Tinch okeani hududi bo'limi.
14. Siyosiy tahlil va bashorat bo'limi.
15. Tashqi iqtisodiy aloqalar va gumanitar yordam bo'limi.
16. Sharhnomalar – huquqiy bo'lim.
17. Tashqi aloqalar vazirligining Koraqalpog'istonidagi bo'limi.
18. Vazirlikning Samarqand bo'limi.
19. Vazirlikning Buxoro bo'limi.
20. Vazirlikning Xorazm bo'limi.

**2.2. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya
vakolatxonalarining boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish
to'g'risidagi qonuni**

Ushbu Konun O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari
boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibini "Diplomatik munosabatlar

to'g'risida" gi 1961 yilgi Vena Konvensiyasiga hamda boshqa umum e'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar va qoidalarga muvofiq belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tayinlanadi va chaqirib olinadi. Bu lavozim nomzodligiga doir taklifni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tegishli idoralar bilan kelishilgan holda kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'qullagan diplomatiya vakolatxonasi boshlig'ining nomzodini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri vakolatxona joylashgan mamlakat Tashqi ishlar vazirligiga (yozma) taqdim etib, uning roziligini (agreman) so'raydi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonasi boshlig'ini tayinlash, vakolatxona joylashgan mamlakatning rasmiy roziligi olingandan keyin amalga oshiriladi.

Vakolatxona joylashgan mamlakatdan javob olingunga qadar diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i lavozimiga nomzod xususidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.

Favqulodda va Muxtor Elchi yoki Favqulodda va Muxtor Vakil tayinlangan mamlakatga jo'nab ketguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi unga boradigan davlatining rahbariga topshirishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti imzolagan hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri imzosi bilan tasdiqlangan ishonch yorligini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Ishonchli Vakiliga O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining qabul qiluvchi mamlakat Tashqi ishlar vazirligi nomiga yozilgan maktubi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonalarining boshlig'i quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoni bilan chaqirib olinadi:

- a) diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i almashtirilganda;

- b) diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i nomatlub shaxs (persona non - grata) deb e'lon qilinganda;
- v) davlatlar o'rtaсидagi diplomatiya munosabatlari uzilganda;
- g) davlatlar o'rtaсиda urush e'lon qilinganda;
- d) davlat xalqaro huquq sub'ekti sifatida yo'qolganida.

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalarining boshqa xodimlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining buyruqlari bilan tayinlanadi va chaqirib olinadi.

2.3. O'zbekiston Respublikasining diplomat xodimlari uchun diplomatik daraja va martabalar

O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarini boshliqlarining 3 darajasi belgilanadi:

- chet davlat boshlig'i huzurida akkreditastiya qilinadigan Favqulodda va Muxtor Elchi;
- chet davlat boshlig'i huzurida akkreditastiya qilinadigan Favkulodda va Muxtor Vakil;
- chet davlat Tashqi ishlar vaziri huzurida akkreditastiya qilinadigan Ishonchli Vakil.

O'zbekiston Respublikasi vakolatxonalarining boshliqlari mansub bo'lishi loyiq ko'rilgan daraja, diplomatiya munosabatlari o'rnatayotgan davlatlar o'rtaсидagi ahdlashuvda belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi diplomatiya martabalari – O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi vakolatxonalarini diplomatiya xodimlariga beriladigan alohida xizmat unvonlari belgilanadi:

- favqulodda va Muxtor Elchi;
- favqulodda va Muxtor Vakil;
- birinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil;
- ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil;

- birinchi Darajali maslahatchi;
- ikkinchi darajali maslahatchi;
- birinchi darajali birinchi kotib;
- ikkinchi darajali birinchi kotib;
- birinchi darajali ikkinchi kotib;
- ikkinchi darajali ikkinchi kotib;
- uchinchi kotib;
- attashe.

Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil martabalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bilan beriladi.

Ana shu masalalar yuzasidan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri kiritadi. Boshqa diplomatiya martabalari vazirning buyrug'i bilan beriladi.

Bu martabalarni berish haqidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining malaka komissiyasi kiritadi. Malaka komissiyasining tarkibi va u haqdagi nizomni tasdiqlaydi. Diplomatik martabalar vazirlikning rahbar va ma'sul xodimlariga ham berilishi mumkin.

Birlamchi diplomatiya martabasi – attashe diplomatiya xizmatida kamida bir yil ishlagan kishiga beriladi.

Diplomatiya vakolatxonalarining xodimlariga navbatdagi uchinchi kotib, ikkinchi kotib martabalari malakasiga hamda xoh markaziy devonda, xoh O'zbekiston Respublikasining chet ellaridagi vakolatxonalarida kamida 2-3 yil, birinchi kotib, maslaxatchi martabalari esa kamida 3-4 yil xizmatni muvaffaqiyatli o'taganligiga qarab beriladi. Ishdagi katta yutuqlari uchun diplomatik vakolatxona xodimiga belgilangan muddatdan oldin yuqoriroq diplomatiya martabasi berish tavsiya etilishi mumkin.

Favqulodda va Muxtor Elchi, Favqulodda va Muxtor Vakil martabalari bir umrga beriladi.

Boshqa diplomatiya martabasiga ega bo'lgan shaxslar vazirlik tizimidan pensiyaga chiqqanlari taqdirda ham ularning bu martabalari saqlanib qoladi.

Favqulodda va Muxtor Elchi, Favqulodda va Muxto Vakil, diplomatiya martabalaridan vazirlikning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bilan mahrum etiladi.

Diplomatiya vakolatxonalarining boshqa a'zolari xususida bu masala yuzasidan qarorni vazirlik malaka komissiyasining taqdimiga ko'ra Tashqi ishlar vaziri qabul qiladi.

Bobning qisqacha mazmuni

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining faoliyati muhim o'rinni tutadi. Vazirlik tizimiga markaziy apparat, elchixona, missiya, konsulxona, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini, diplomatik xizmat turlari kiradi. Tashqi ishlar vazirini Prezident, Oliy majlis tasdiqlagandan keyin tayinlaydi. O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tayinlanadi va chaqirib olinadi.

Tayanch iboralar: tashqi ishlar vazirligining tuzilishi, tarkibi, diplomatik faoliyatda tutgan o'rni. O'zbekiston Respublikasining chet ellarda diplomatik daraja va martabalari. "Persona non grata". Agreman so'rash tartibi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining tuzilishi va faoliyat yuritish mexanizmi nimadan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasining chet ellarda diplomatik vakolatxona boshliqlarini tayinlash to'g'risidagi qonunini izohlang.
4. Asosiy diplomatiya martabalari haqida nima bilasiz?

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O'zbekiston”, 1997.
2. Israelyan V.L. Diplomati listom k listu. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1990.
3. Soglashenie o partnerstve i sotrudnichestve mejdzu Respublikoy Uzbekistan i Evropeyskim soobshchestvom i ego gosudarstvami-chlenami. – Tashkent, 1996.
4. Щетinin V.D. Ekonomicheskaya diplomatiya: Uchebnoe posobie. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2001.
5. Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.
6. Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy steremonial i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.
7. Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.jahon.mfa.uz

www.edu.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

3-bob. Diplomatik vakolatxonalar va ularning vazifalari hamda huquqlari

3.1. Elchixonalar, missiyalar hamda konsulliklar va ularning vazifalari

Elchixona yoki missiya muayyan davlat tomonidan xorijiy davlat boshlig'i huzurida doimiy vakolatxonalar sifatida tashkil etiladi. Mazkur vakolatxonalarning boshlig'i sifatida elchilar, vakillar yoki muvaqqat ishlar vakillari faoliyat ko'rsatadi. Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvenstiyasining (1961 yil) 14-moddasiga muvofiq elchilar davlat boshlig'i huzurida, vakillar hukumat boshliqlari huzurida akkreditastiya qilinadilar.

Muvaqqat ishlar vakilini tayinlash odatda, vaqtinchalik holat bo'lib, diplomatik munosabatlarning muayyan darajada murakkabligini ifodalaydi.

Elchixona o'z maqomiga ko'ra oliy diplomatik vakolatxona hisoblanadi. Hozirgi kunda elchixonalar diplomatik vakolatxonalarining eng oliy ko'rinishi sifatida baholanadi. Uning tashkil etilishi muayyan mamlakat bilan oliy darajadagi diplomatik munosabatlar o'rnatilganligini bildiradi.

Vena konvenstiyasiga muvofiq diplomatik vakolatxona quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Akkreditastiya qilayotgan davlatning o'zi turgan davlatdagi vakili bo'lish.
2. O'zi turgan davlatda o'z davlati va fuqarolari manfaatlarini xalqaro huquq doirasida himoya qilish.
3. O'zi turgan davlatning hukumati bilan muzokaralar olib borish.
4. Konuniy vositalar asosida o'zi turgan davlatdagi sharoit va voqealarni aniqlash va o'z davlatining hukumatini ulardan xabardor qilish.
5. O'z davlati va o'zi turgan davlat o'rtasidagi do'stona aloqalarni qo'llab-quvvatlash, o'zaro iqtisod, madaniyat va fan sohasidagi aloqalarni rivojlantirish (3-modda).

Boshqacha qilib aytganda, elchixonaning asosiy vaifasi eng avvalo o'zi turgan davlatda o'z davlatining barcha masalalari bo'yicha vakilligini amalga oshirishdan iborat. Diplomatik vakolatxona uni tayinlagan hukumatning vakolatxona joylashgan mamlakat hukumatiga o'zini qiziqtirgan barcha masalalar bo'yicha aynan vakolatxona vositasida murojaat qiladi.

Muayyan davlat tashqi ishlar idorasi bilan doimiy aloqa va muzokaralar akkreditatstiya qilingan davlatlarning vakillari tomonidan mazkur mamlakatdagi diplomatik vakolatxona orqali amalga oshiriladi. Elchixona yoki missiya o'zi joylashgan mamlakat Tashqi ishlar vazirligi bilan doimiy aloqada bo'ladi. Bundan tashqari elchixonalar diplomatik korpus bilan doimiy aloqada bo'ladi.

O'z hukumatini o'zi joylashgan mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqida xabardor qilish va o'z davlati tashqi siyosati manfaatlari yo'lida aktiv

faoliyat ko'rsatish, o'zi joylashgan mamlakat bilan munosabatlarni yangilash va rivojlantirish diplomatik vakolatxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Har bir elchixona yoki missiya o'zi joylashgan mamlakatda ro'y berayotgan voqealarni muntazam kuzatib boradi. Bu bilan birga har qanday xorijiy vakolatxona har bir qadamini o'ylab qo'yishi, o'z davlatining siyosatini amalga oshirishi uchun qanday ishni amalga oshirish foydaliroq ekanini tasavvur qila olishi zarur. Bu xususan, davlatlararo iqtisodiy va madaniy munosabatlarni rivojlantirish, siyosiy aloqalarni mustahkamlash va kengaytirishga taaluqlidir.

O'z davlati fuqarolari va yuridik shaxslarining manfatlari va huquqlarini himoya qilish uchun vakolatxona o'zi turgan mamlakatning davlat organlari, sud va boshqa organlari bilan ish olib borishi zarur hollarda, mazkur mamlakatning hukumatiga murojaat qilishi mumkinligini taqozo etadi. Bunda xorijiy vakolatxona uning diplomatik xodimlari va boshqa xizmatchilar o'zi turgan mamlakat qonun va odatlarini tan olishi va hurmat qilishi, uning davlat va ijtimoiy qurilishini tan olishi va barcha tan olgan xalqaro huquq-mazkur vakolatxona va akkreditastiya qilingan davlatning ichki ishlariga aralashmaslik asosida faoliyat ko'rsatishlari lozim bo'ladi.

3.2. Diplomatik vakilni tayinlash va ishonch yorliqlarini topshirish

Elchi yoki vakil tayinlanishi uchun tegishli hukumat agremani olingandan keyin, davlat rahbarining bu haqidagi farmoni yoki qarori e'lon qilinadi. So'ngra elchi (vakil), davlat rahbari imzolagan va tashqi ishlar vaziri tomonidan tasdiqlangan ishonch yorlig'ini oladi. Elchi (vakil) yorliqni olib o'zi tayinlanayogan davlatning poytaxtiga jo'naydi. Ayrim hollarda hukumat elchi (vakil) o'zining doimiy ishonchli vakilini tayinlaydi, u o'z davlati tashqi ishlar vaziri tomonidan yozilgan maktubni o'zi tayinlangan davlatning tashqi ishlar vaziriga topshiradi.

Elchi (vakil) bilan uchrashuvda Protokol boshqarmasi boshlig'i ba'zan boshqa rasmiy kishilar ham qatnashadi. Agar elchi (vakil) bu mamlakatga u

bilan munosabatlar o'rnatilgandan so'ng bиринчи мarta kelayotgan bo'lsa, u holda elchi (vakil) qisqacha bayonot bildiradi.

Mazkur bayonot mahalliy matbuotda e'lon qilinib, elchi (vakil) oldiga qo'yilgan, uni jo'natayotgan hukumat tomonidan belgilangan vazifalar bayon etiladi.

Diplomatik vakil quyidagi holatlarda o'z faoliyatini to'xtatadi:

1. O'z lavozimidan ozod qilinsa yoki boshqa lavozimga tayinlansa.
2. Faoliyat ko'rsatayotgan mamlakat hukumati uni "nomatlub shaxs" ("persona non grata") hisoblab, uni chaqirib olinishini talab kilsa.
3. Diplomatik vakil vafot qilsa.
4. Diplomatik munosabatlar bekor qilinsa, ayniqsa urush olib borilsa yoki boshqa davlatlarga bo'linib ketsa va h. k.

Elchini chaqirib olishda uni jo'natgan davlat boshlig'i elchi akkreditastiya qilingan davlat boshlig'iga chaqirib olish maktub-yorliq yo'llaydi. Mazkur yorliq elchi (vakil) tomonidan davlat boshlig'iga xayrashuv tashrifi vaqtida yoki yangi elchi (vakil) tomonidan ishonch yorliqlari topshirilayotganda taqdim etiladi.

Ketish oldidan elchi (vakil) davlat boshlig'i, hukumat boshlig'i, tashqi ishlar vaziri, uning o'rribosari, o'zi doimiy aloqada bo'lган vazirlar, parlament arboblari va boshqa rasmiy shaxslar huzuriga tashrif buyuradi. Elchi (vakil) shu bilan birga o'z hamkasblari ayrim elchilar va diplomatik korpus duayeni huzuriga ham tashrif buyuradi.

Tashqi ishlar vaziri yoki uning o'rribosari jo'nab ketayotgan elchi (vakil) sharafiga nonushta yoki tushlik beradi. Odatta diplomatik korpus boshlig'i (duayen) ham elchilar (vakillar) nomidan xayrashuv qabuli uyushtiradi. Jo'nash vaqtida elchi (vakil) ni Protokol boshqarmasi boshlig'i yoki uning o'rribosari kuzatadi.

3.3. Diplomatik korpus va uning xodimlarining huquqiy maqomi

Xorijdagi diplomatik vakolatxonalarning normal faoliyat ko'rsatishi uchun dastlabki eng muhim shartlardan biri mazkur vakolatxona hududi va binosining daxlsizligi, vakolatxona diplomatik xodimlari uchun diplomatik immunitetga zga bo'lishdir. Mazkur huquqiy qoidalar xalqaro huquqda umum qabul qilingan bo'lib, vakolatxona binosining daxlsizligi va diplomatik immunitetini paymol qilish, xalqaro huquq me'yorlari va davlatlarning suverenlik huquqining qo'pol buzilishi hisoblanadi. Buning uchun odatda davlatlar bunday qoidabuzarlikka nisbatan juda keskin munosabat bildiradilar. Shunga qaramay hozirgi paytda ham bunday holatlar bir-biriga qarshi bo'lgan davlatlar o'rtasida sodir bo'lib turibdi. Bunday hollarda mazkur fakt sodir bo'lgan davlat hukumati ro'y bergen noxush voqeа qanchalik nomaqbulligi, unga umuman yo'l qo'yish kerak emasligini to'la idrok etadilar va unga tegishli baho beradilar. Odatda mazkur davlat hukumati sodir bo'lgan noxush holat bo'yicha tegishli davlat hukumatiga kechiktirmay xabar etadilar va aybdorlarni topish va ularga nisbatan tegishli jazo choralar ko'rish haqida ularni ishontiradilar. Agar ana shu tadbirlar amalga oshirilmasa yoki bu vakolatxona yopilishi va ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar to'xtatilishi mumkin. Bino daxlsizligi va diplomatik immunitetni saqlamasdan hech bir diplomatik vakolatxona normal faoliyat ko'rsata olmaydi.

Diplomatik munosabatlar haqidagi Vena konvenstiyasining 22-moddasida shunday deyiladi: "Vakolatxona binosi daxlsizdir. Vakolatxona joylashgan davlat boshliqlari bu binoga faqat vakolatxona rahbarining roziligi bilangina kirishlari mumkin". Konvenstyaning 29-moddasi quyidagicha: "Diplomatik agentning shaxsi daxlsizdir. Uni xibsga olish u yoki bu tarzda ushslash xalqaro huquqning buzilishi demakdir. U faoliyat ko'rsatayotan davlat diplomatik agent shaxsiga nisbatan har qanday hurmatsizlik, uning ozodligi va obro'siga putur etkazuvchi har qanday holatlarni oldini olish lozim. Bundan tashqari, har bir diplomatik vakolatxona o'z hukumati bilan shifrlangan maxsus aloqa turi vositasida bog'lanishi va tekshirilishi mumkin bo'limgan diplomatik pochta olish huquqiga ega.

3.4. Diplomatik vakolatxonaning huquq va majburiyatlari.

Diplomatik vakolatxona barcha diplomatik xodimlarning shaxsiy daxlsizligini ta'minlash uchun ularga diplomatik pasport beriladi. Jo'natilgan mamlakatga kelgandan so'ng, mazkur davlat tashqi ishlar vazirligi diplomatik martabaga ega bo'lgan har bir vakolatxona xodimiga maxsus diplomatik kartochka beradi.

Elchi xorijda vakolatxona binosiga davlat bayrog'ini o'rnatish huquqiga ega. Pasport vositalari ham bino, hudud singari daxlsiz hisoblanadi.

Diplomatlarning shaxsiy yuklari bojxona tekshiruviga tortilmasligi, ularga etarli e'tibor berilishi va diplomat shaxsiy yukining saqlanishi uchun ko'p davlatlarda diplomatik pasport bilan birga vakolatxona joylashgan davlat hukumatining himoya qilish yorlig'i ham beriladi. Bunday yorliqning taqdim etilishi diplomat yukining bojxona xodimlari tomonidan tekshirilishidan xalos qiladi va tegishli davlat rahbarlarining diplomatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Ba'zi davlatlarda bojxona tekshiruvidan holi etish uchun diplomatik pasportni ko'rsatishi etarlidir.

Xorijiy vakolatxonaning o'zi turgan davlat tegishli muassasalari, idoralari rasmiy tashkilotlari bilan muloqot qilishning umumiy tartibi barcha mamlakatlarda qabul qilingan: har bir xorijiy davlat vakolatxonasi o'zi turgan mamlakatning tegishli muassasalari, idoralari va rasmiy tashkilotlari bilan mazkur davlat tashqi ishlar vazirligi orqali barcha masalalar (maishiy masalalardan tashqari) bo'yicha muloqot qiladi. Bu qoida halqaro amaliyot va xalqaro huquqda belgilangan davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik prinstiplaridan kelib chiqadi.

Muayyan davlatning biron mamlakatdagi vakili diplomatik vakolatxonaning boshlig'i elchi hisoblanadi.

Biror bir mamlakatda o'z vakolatxonasiga ega har qanday idora, mazkur vakolatxonalarning doimiy yoki muvaqqatligidan qat'iy nazar o'zlarining faoliyatini elchi bilan kelishilgan holda amalga oshirishlari lozim. Bundan

tashqari ushbu mamlakatga keluvchi delegasiyalar va alohida shaxslar o'z harakatlarini elchi bilan kelishadilar. Chunki mazkur davlat hududidagi har qanday ish uchun o'z davlati va hukumati oldida elchi javobgar hisoblanadi.

Elchiga juda keng vakolatlar berilgan. Chunki, u o'z davlatining muayyan mamlakatdagi muxtor vakili hisoblanadi.

Quyida diplomatik vakolatxonaning o'zi turgan mamlakat rasmiy va jamoatchilik tashkilotlari diplomatik korpus va diplomatik apparat bilan muloqotining ayrim shakl va usullarini ko'rib o'tamiz.

Elchi va elchixona diplomatik tarkibining o'zi turgan mamlakat rasmiy va jamoatchilik doiralari bilan muloqot qilish tizimi elchi tomonidan tegishli davlat boshlig'iga ishonch yorliqlarini topshirishidan boshlanadi. Bunga qadar biror davlat yoki jamoatchilik tashkilotining elchi yoki elchixona bilan rasmiy munosabatlari amaliyotda kuzatilmaydi. Elchi tomonidan ishonch yorliqlari topshirilgandan keyingina elchixona o'z huquqiga ega bo'ladi, deb hisoblanadi.

Ishonch yorliqlari topshirilgandan so'ng elchi tomonidan bu davlat bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan barcha davlatlar elchixonalari va missiyalari boshliqlarining nomiga shaxsiy nota jo'natiladi. Munosabatlar o'rnatilmagan davlatlar elchixonalariga ham, siyosiy jihatdan maqsadga muvofiq sanalsa, bunday notalar jo'natilishi mumkin. Notada elchining qaysi vaqtda ishonch yorliqlarini topshirgani va ular bilan rasmiy aloqalar o'rnatganidan behad mamnun ekanligi izhor etiladi. Bunday notaning matni elchixona joylashgan mamlakat bilan aloqalarning ahvolini hisobga olgan holda tuziladi. Mazkur nota diplomatik korpus duayeniga ham jo'natiladi. Albatta, bunda mazkur tadbirning siyosiy maqsadlarga zid kelmasligini hisobga olinishi lozim.

Bundan keyin mazkur davlatda belgilangan protokol qoidalariga muvofiq rasmiy kishilar Tashqi ishlar vaziri, uning o'rinnbosarlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari huzuriga tashrif uyushtiriladi.

Elchixona o'zi turgan mamlakatning turli doiralari bilan keng qamrovli muloqotda bo'lishidan manfaatdordir. Imkon bo'lган joylarda Tashqi ishlar vazirligi doirasidan tashqari barcha vazirlar va alohida mavqega ega bo'lган

rasmiy kishilarning huzuriga ham tashrif uyuştırıldı. Xususan, palata raisi, parlament frakstiyalarining rahbarlari bilan shaxsiy aloqa o'rnatish, ularni rasmiy qabullarga taklif qilish elchixonona vazifasidir.

Elchining har bir tashrifi protokol xarakterida bo'lavermaydi. Bu ko'p hollarda elchining o'ziga bog'liq.

Protokol tashrifi alohida ehtirom ifodasi bo'lib, unda ayrim muhim masalalarni hal qilish kuzatilmaydi. Agar elchi tashrif buyurgan rasmiy shaxs yoki vazir aynan elchini qiziqtirgan masala bilan shug'ullansa, unda elchi alohida nazokat bilan bu xususda o'z qiziqishini ifoda qiladi. Bunday hollarda mazkur masalaning hal qilinishi elchi tomonidan talab etilmayotganligi yaqqol ifodalanishi lozim.

Vazir, Parlament raisi, parlament asosiy frakstiyalarining rahbarlari, poytaxt burgomistri, elchi vakili bo'lган mamlakat bilan munosabatlar o'rnatgan mamlakatlarning elchilari bilan uyushtirilgan suhbatlar munosabatlarni mustahkamlash va qimmatli axborot olish uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari suhbatlar elchi haqida tasavvur hosil qiladi va elchixonaning ishini yaxshilashga yordam beradi.

Ko'pchilik elchixonalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, 2-3 oy mobaynida sharoitni o'rganish, keyinchalik mamlakatdagi ahvol qandayligini kengroq miqyosda kuzatish mumkin. Elchixonadagi yig'ilishlarda bu kabi suhbatlar haqida qisqacha axborot beriladi.

Elchining tashrifidan so'ng elchixonaning boshqa xodimlari boshqa elchixonaning tegishli xodimlari bilan tanishadilar. Maslahatchilar maslahatchilar bilan, birinchi kotiblar birinchi kotiblar bilan uchrashadilar.

Elchixona tegishli xodimlarining tashrifidan so'ng boshqa elchixonalarning xodimlari javob tashrifi uyuştırıldilar. Tashriflardan so'ng doimiy uchrashuvlar, turli masalalar bo'yicha axborotlar almashish davom etadi. Odatda diplomatik tajriba shuni ko'rsatadiki, barcha suhbatlar yozib boriladi va ular faqat elchixonadagina foydalanilmay, balki markazga ham yuboriladi.

Diplomatik vakolatxonaning tashqi muloqot shakllaridan biri o'zi turgan mamlakat hukumati, tashqi ishlar vazirligi, elchixonalar tomonidan uyushtiriladigan rasmiy qabullarda ishtirok etishidir. Bu qabullar mamlakat o'rtaсидаги aloqalarni yaxshilash, foydali axborot olish uchun shaxsiy aloqalar o'rnatish uchun juda foydalidir. Bundan barcha diplomatlar foydalanadi. Ayrim muhim masalalar qabullarda hal qilinadi. Ayrim paydo bo'lган qiyinchiliklarni engish uchun mana shunday qabullar uyushtiriladi.

BMT Bosh assambleyasi sessiyalari vaqtida, turli xalqaro kengashlar paytida BMT huzuridagi vakolatxonalarining turli toifadagi elchilar uchun odatdagи qabullar, nonushta va tushliklar tashkil etiladi. Bunday qabullar paytida pozistiyalar aniqlanadi, u yoki bu hukumatga ta'sir o'tkaziladi, rasmiy sharoitda umuman kelishib bo'lmaydigan bir qator masalalar yuzasidan kelishuvlar amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar ikki tomonlama va rasmiy uchrashuvlarda ham amalga oshiriladi. Nihoyat, elchixonada va elchining uyida uyushtiradigan qabullar ham o'zaro muloqot va axborot olish uchun muhimdir.

Turli davlatlarda qabul marosimlarini o'tkazishning protokol qoidalari mavjud. Nonushta soat 12-15 o'rtaсида uyushtiriladi. Ko'п hollarda soat 13 da o'tkaziladi. Tushliklar soat 20-21 o'rtaсида, choy 16-18 da, kokteyl va qabullar («a lya furshet») - 17 dan 20 gacha, ba'zan kechroq ham o'tkazilishi mumkin. Bunday qabullar asosan davlat yoki hukumat boshlig'i kelishi munosabati bilan o'tkaziladi.

Har bir qabul marosimida oldindan taklif qilinganlarning ro'yxati tuziladi. Bunda taklif qilinayotgan tomon bilan taklif qilayotgan tomon qatnashchilarining soni deyarli bir xil bo'lishi kerak. Barcha taklif qilinganlarga taxminan bir hafta oldin muayyan shakldagi taklifnomalar jo'natiladi. Bu taklifnomalarda qabul marosimining joyi, vaqt va kiyinish turi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, taklifnomalarda uni olganlik haqida xabar berish so'raladi.

Elchi elchixonada va o'zi turgan mamlakatdagи o'z davlati fuqarolari o'rtaсида bo'lib o'tadigan har bir voqeadan xabardor bo'lisch, shug'ullanish huquqiga ega. To'laqonli hokimiyatga ega bo'lган elchi tajribali xodim sifatida

mazkur mamlakatga jo'natilgan o'z hamyurtlariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, har bir xodim harakatlarini kuzatishi, o'z davlati manfaatlariga zarar etishining oldini olishi lozim.

Elchixona maslahatchilar elchi nazorati ostida o'zlari rahbarlik qiladigan sohalarda mustaqillik huquqiga egadirlar. Elchi o'rnida qolgan maslahatchi elchixonaning butun faoliyati uchun javobgar sanaladi va elchiga berilgan barcha huquqlariga ega bo'ladi. Elchixonaning boshqa diplomatik xodimlari (kotiblar, attashelar) muayyan soha uchun javobgar bo'lib, tegishli huquqlariga egadir.

Bobning qisqacha mazmuni

Elchixona yoki missiya muayyan davlat tomonidan xorijiy davlat boshlig'i huzurida doimiy vakolatxonalar sifatida tashkil etiladi. Elchixona o'z maqomiga ko'ra oliy diplomatik vakolatxona hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, elchixonaning asosiy vaifasi eng avvalo o'zi turgan davlatda o'z davlatining barcha masalalari bo'yicha vakilligini amalga oshirishdan iboratdir. Xorijdagi diplomatik vakolatxonalarning normal faoliyat ko'rsatishi uchun dastlabki eng muhim shartlardan biri mazkur vakolatxona hududi va binosining daxlsizligi, vakolatxona diplomatik xodimlari uchun diplomatik immunitetga zga bo'lish hisoblanadi. Diplomatik vakolatxonaning tashqi muloqot shakllaridan biri o'zi turgan mamlakat hukumati, tashqi ishlar vazirligi, elchixonalar tomonidan uyushtiriladigan rasmiy qabullarda ishtirok etishidir. Bu qabullar mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash, foydali axborot olish uchun shaxsiy aloqalar o'rnatish uchun muhim hisoblanadi.

Tayanch iboralar: elchixona va missiya, elchixonaning tarkibiy tuzilishi, maxsus maslahatchilar va ATTAShE, elchixonaning faoliyat ko'rsatish uslubi, elchixonaga tashrif buyuruvchilar, matbuot xodimlari va ommaviy-axborot organlari, ishonch yorlig'i.

Nazorat savollari:

1. Diplomatik vakolatxonaning ish faoliyatini tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?
2. Diplomatik vakolatxonaning xodimlari qanday martabalarga ega bo'ladilar?
3. Diplomatik korpus to'g'risida tushuncha bering?
4. "Diplomatik aloqalar haqida" gi 1961 yilgi Vena konvenstiyasining mamlakatlar tashqi siyosatidagi ahamiyati nimada ko'rindi?
5. Vakolatxonaning ish uslubi haqida gapirib bering.
6. "DUAYEN" va uning asosiy vazifalarini yoriting.

Adabiyotlar:

1. Israelyan V.L. Diplomati listom k listu. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1990.
2. Щетинин V.D. Ekonomicheskaya diplomatiya: Uchebnoe posobie. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2001.
3. Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.
4. Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy steremonial i protokol/Per. s angl. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.
5. Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.mfer.uz

www.jahon.mfa.uz

www.edu.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

www.review.uz

4-bob. Diplomatik vakolatxonalarining turkumlanishi

4.1. Diplomatik agentlar to'g'risida tushuncha

Xalqaro munosabatlar bo'yicha davlatlarning boshliqlari har doim aloqada bo'lmaydi. Shuning uchun ular nomidan muloqat olib boruvchi vakillar zarur. "Diplomatik agentlar" termini faqat diplomatik vakolatxona boshliqlariga taalluqli bo'lmasdan, balki diplomatik personal a'zolari hisoblangan barcha xodimlarga tegishlidir. Diplomatik vakolatxona boshlig'i ikki davlat o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish uchun o'z davlati siyosatini targ'ib etishi lozim. Davlatlar to'g'ri kelgan shaxsni diplomatik vakil sifatida qabul qilmaydi. Shuning uchun Tashqi ishlar vazirligi diplomatik vakil tayinlanishidan oldin u jo'natiladigan davlatdan ruxsatnoma, ya'ni agreman so'raladi.

Biroq juda kam hollarda bo'lsa ham, agreman so'ralsan hukumat qandaydir sababga ko'ra u yoki bu shaxsning o'z mamlakatiga vakil etib tayinlashiga rozilik bermaydi. Bunday hollarda to'g'ridan to'g'ri rad javobi muddatini ataylab orqaga suradilar. Bu bilan belgilangan vakil nomzodi mazkur hukumat uchun nomaqbol shaxs ekanligini bildiradilar.

Bu shaxs diplomatiya tilida "persona non grata" nomatlub shaxs deb ataladi. Bunday hollarda belgilangan shaxs nomzodi rad etilgan hukumat

muayyan mamlakatdagi o'z elchisi lavozimini bo'sh qoldiradi va bu bilan rad javobidan ranjiganligini ifodalaydi.

4.2. Diplomatik vakolatxonalarining asosiy toifalari

Odatda ishonch agremani elchi yoki vakil yuborilayotgan mamlakatning hukumati tomonidan rasmiyatçilik yuzasidan so'raladi. Lekin ayrim davlatlar elchixonalar huzurida tayinlanadigan harbiy attashelar ham agreman so'rashni talab qiladilar.

Ko'pgina davlatlarda esa u yoki bu shaxsning harbiy attashe lavozimiga tayinlanayotgani haqida rasmiy xabar berilishi so'raladi, xolos. Elchixonaning xar bir xodimi uchun kirish vizasi so'rالishi, mazkur mamlakat hukumatiga u yoki bu holatda juda kam uchraydi.

Vakolatxona boshliqlari turli kategoriyalarga bo'linadi. Diplomatik vakolatxona boshliqlari orasida Vena konvenstiyasining 14 moddasiga asosan ular 3 guruhga bo'linadi:

1. Elchilar sinfi va boshqa diplomatik rangga tenglashtirilgan davlat boshliqlari tomonidan akkreditastiya qilingan diplomatik boshliqlar.
2. Davlat boshliqlari tomonidan akkreditastiya qilingan vakillar.
3. TIV tomonidan akkreditatstiya qilingan ishonchli vakillar.

Vakolatxona boshliqlari o'z funkstiyalarini bajarish vaqtidan boshlab boshliq sifatida tayinlanadilar.

Britaniya ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalar alohida oliy komissariyat deb nomlanuvchi diplomatik korpus tomonidan olib boriladi.

Ikkinci jahon urushidan keyin Britaniya imperiyasining bir butun teritoriyasi mustaqil bo'ldi. Ammo ularning bir qanchasi Britaniya ittifoqida qolib ushbu ittifoqning rahbariyati sifatida Angliya davlatini tan olishdi.

4.3. Komissarlar va Vatikan diplomatiyasi

Oliy komissarlarga ishonch yorliqlari berilib, ular Britaniya premer-ministriga topshiriladi. Oliy komissar quyidagi davlatlarda duayen vazifasini egallashi mumkin: Avstraliya, Hindiston, Kanada, Pokiston va Shri-Lanka.

Vatikan diplomatiyasi o'ziga xos xususiyatga egadir. Vatikan mustaqil davlat hisoblanib, elchixonalarning aktiv va passiv huquqlaridan foydalanadi.

Vatikanda vakolatxonalarining uchta toifasi faoliyat ko'rsatadi:

1. Favqulodda diplomatik vakolatxonalar.
2. Fuqarolik ishlari bo'yicha bo'ysunuvchi doimiy diplomatik vakolatxonalar.
3. Sharqiy cherkov va diniy ta'limot ishlari bo'yicha vakolatxona.

Diplomatik vakillari nunstiya va internunstiya deb nomланади. Ularning boshlig'i eparxlal episkop hisobланади. Nunstiya elchi rangiga ega.

Vatikan bilan diplomatik aloqalar olib bormaydigan davlatlar bilan yuzaga keladigan muammolarni apostalik delegatlar yuborilib hal qilinadi.

Diplomatik vakolatxona personali o'z ichiga maslahatchilar, elchixona kotibiyati, attashe, kotiblar, tarjimonlar va kurerlarni qamrab oladi.

1961 yilgi Vena konvensiyasining 1 moddasi diplomatik vakolatxona personali quyidagicha farqlanadi:

1. Vakolatxona xodimlari bo'lib, vakolatxona boshliqlari va personal a'zolari hisobланади.
2. Vakolatxona personali a'zolari bo'lib, vakolatxonaning diplomatik personali, ma'muriy texnik va xizmat qiluvchi personal.
3. Diplomatik rangga ega personal "diplomatik personal a'zolari" hisobланади.
4. "Diplomatik agent" bu diplomatik personal a'zosi hisobланади.

4.4. Diplomatik korpus va duayenning asosiy majburiyatları

Diplomatik korpus - muayyan mamlakatda akkreditastiya qilingan xorijiy diplomatik vakolatxonalar boshliqlari jamligidir. Bular jumlasiga elchilar, vakillar, doimiy ishlar vakili, muvaqqat ishlar vakili kiradi.

"Diplomatik korpus" tushunchasi keng ma'noda diplomatik vakolatxonalar boshliqlaridan tashqari muayyan mamlakatlardagi barcha

diplomatik vakolatxonalarining diplomatik xodimlari nazarda tutilishini ifodalaydi. Bu xodimlar qatoriga: maslaxatchi vakil, maslaxatchilar, elchixona va missiyaning birinchi, ikkinchi va uchinchi kotiblari va attashelari, harbiy, harbiy dengiz va harbiy havo attashelari, iqtisodiy, ilmiy va madaniy masalalar bo'yicha maxsus maslaxatchilar kirdilar. Diplomatik korpus jumlasiga, shuningdek diplomatik xodimlarning oila a'zolari: xotinlari, turmushga chiqmagan qizlari va voyaga etmagan o'g'il bolalari ham kiradi. O'zi turgan mamlakat hukumati tomonidan tan olingan diplomatik xodim va oila a'zolarining guvohnomalari asosida tashqi ishlar idorasi diplomatik kartochka beradi.

Tabiiyki, diplomatik xodimning diplomatik martabasi birinchi navbatda o'z mamlakati tomonidan tan olinishi kerak. Buning tasdig'i sifatida diplomatga diplomatik pasport beriladi. Mamlakat tashqi ishlar vazirligiga ishga kelgan diplomat xodimning diplomatik martabasini tan olmasligi mumkin. Mazkur diplomat xodimning diplomatik martabasi ushbu diplomatik korpusdagi qabul qilingan diplomatik lavozimlarga to'g'ri kelmasligi bunga sabab bo'lishi mumkin. Tashqi ishlar vazirligi muntazam ravishda diplomatik korpus haqida ma'lumotlarni chiqaradi. Unda diplomatik xodimlar va oila a'zolarining ismishariflari, manzili, xizmat va xonadon telefonlarining raqamlari keltiriladi.

Diplomatik korpus yuridik shaxs huquqiga ega, xalqaro huquqiy me'yorlar asosida tuzilgan tuzilma yoki siyosiy birlashma yoxud tashkilot bo'lmay, u bir biriga bog'liq bo'lмагan diplomatik vakolatxonalar majmui bo'lib, ularni birlashtiruvchi omil ularning joylashuv eri va faoliyat turidir.

Xalqaro amaliyotda faqat marosim tadbirlaridagina diplomatik korpusning jamoa sifatida qatnashishi mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan: o'zi turgan mamlakat davlat boshlig'ining saylanishi yoki mamlakat milliy bayrami munosabati bilan shunday tarzda qatnashuvi mumkin.

Diplomatik korpus duayeni - ishonch yorliqlarini topshirish muddati bo'yicha diplomatik korpusdagi o'z hamkasblari orasida "keksa" hisoblangan diplomatik vakolatxona boshlig'idir. Diplomatik korpus duayeni doimo 1-toifali

diplomatik vakil (elchi) bo'ladi. Diplomatik protokol va etiket masalalari o'zi turgan mamlakat ma'murlari bilan o'zaro munosabat bo'yicha maslahatlar beradi. Shu maqsadlarda unda zarur axborotlar to'planadi va mamlakatning hukumat doiralari va mahalliy protokol bilan doimiy aloqada bo'ladi. U mahalliy protokol va o'zining diplomatik hamkasblari o'rtasida vositachi hisoblanadi. Masalan, duayen Tashqi ishlar vazirligining diplomatik korpus ishtirokida o'tkazadigan tadbirlari haqidagi xabarni o'z hamkasbalariga etkazadi. Bundan tashqari, duayen diplomatik korpus nomidan mamlakatda ro'y beradigan tantanalar va motam marosimlariga munosabat bildiradi. U turli marosimlarda qatnashadi, tabriklar izhor qiladi, hamdardlik bildiradi, diplomatik korpusning umumiyligi tadbirlaridagi ishtirokini tashkil etadi. Mazkur holatlarda duayenning zimmasiga ma'suliyatli vazifa yuklanadi. U turli nuqtai nazarda bo'lishi mumkin bo'lgan o'z hamkasblarining fikrini bayon qilishi lozim. Duayen diplomatik korpusning o'zida ham ro'y beradigan voqealariga ham munosabat bildirishi zarur.

U diplomatik korpus nomidan u yoki bu diplomatik vakolatxona boshlig'ini kuzatish marosimini tashkil etadi. Duayenning egallab turgan maqomi unga boshqa diplomatik vakolatxonaning oddiy boshlig'idan farqli o'laroq faxrli o'rinni egallah imkonini beradi.

Duayenning diplomatik korpus nomidan qatnashuvi uning hukumat doiralari va mamlakat jamoatchiligi orasida obro'sini oshiradi.

Diplomatik korpus duayeni protokol tartibi, imtiyozlarining himoyasi, a'zolarining mahalliy hokimiyatga nisbatan ulug'ligi, diplomatik korpusning ayrim marosimlarida ishtiroki masalalari bo'yicha qatnashishi mumkin.

Diplomatik ulug'lik – diplomatik korpusning muhim qoidalaridan bo'lib, u jamoaning ulug'ligini, diplomatik vakolatxona boshliqlarining o'zi turgan mamlakat ma'murlariga nisbatan diplomatik ulug'ligi prinstipini ifoda etadi.

Rasmiy tadbirlarga taklif qilingan diplomatik korpusga davlat va hukumat boshlig'iga yaqin bo'lgan birinchi faxriy o'rinni taklif qilinadi.

Yuqorida ta'kidlangan diplomatik vakolatxona boshliqlarining diplomatik ulug'ligi 1961 yil 18 apreldagi diplomatik aloqalar haqidagi Vena konvensiyasiga muvofiq belgilanadi.

Diplomatik vakolatxona boshliqlarining ulug'ligi u yoki bu diplomatik vakilning mahalliy tajribasi yoki uning mazkur mamlakatga kelish sanasi yoxud ishonch yorliqlarini topshirish sanasini hisobga olgan holda belgilanadi.

1815 yilgi Vena kongressining 6-moddalarida keltirilgan va 1961 yilgi Vena konvensiyasining 14-modda 3 - bandida tasdiqlangan qoidada shunday yozilgan: «Har bir davlatda vakolatxona boshliqlarini qabul qilish marosimida rioya qilinadigan tartib har bir toifa diplomatlariga nisbatan bir xil bo'lishi kerak».

Franstiyada xorijiy diplomatlar ishtirokida o'tkaziladigan nonushta va tushliklarda hozirgi diplomatik amaliyotda qabul qilingan ro'yxat asosida ulug'lik belgilanadi:

Bosh vazir yoki Tashqi ishlar vazirining uyida:	Xorijiy elchi uyida:
1. Diplomatik korpus duayeni.	1. Bosh vazir
2. Elchilar	2. Senat raisi
3. Senat (kongress) raisi.	3. Milliy majlis raisi.
4. Milliy majlis raisi	4. Tashqi ishlar vaziri
5. Diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari, vazirlar.	5. Diplomatik korpus
6. Respublikaning sobiq prezident-lari	6. Respublikaning sobiq prezidentlari
7. Vazirlar	7. Vazirlar
8. Bosh kotib	8. Bosh kotib
9. TIV siyosiy direktori	9. TIV siyosiy derektori
10. Parlament deputatlari.	10. Parlament deputatlari
11. Diplomatik vakolatxona boshliqlari	11. Diplomatik vakolatxona

	boshliqlari.
--	--------------

Diplomatik vakolatxona boshlig'ining o'limi yoki almashtirilishi siyosiy tuzumning o'zgarishi munosabati bilan qaytadan ishonch yorliqlari topshirganda uning diplomatik korpusdagi ulug'ligi saqlanib qolinadi.

Bobning qisqacha mazmuni

Xalqaro munosabatlar sohasida davlat boshliqlari nomidan muloqat olib borishda vakillar muhim o'rinni tutadi. Davlatlar to'g'ri kelgan shaxsni diplomatik vakil sifatida qabul qilmaydi. Diplomatik vakil Tashqi ishlar vazirligi tomonidan jo'natiladigan davlatdan so'raladigan ruxsatnoma, ya'ni agreman muvofiq tayinlanadi. Ayrim hollarda agreman so'ralgan hukumat qandaydir sababga ko'ra u yoki bu shaxsning o'z mamlakatiga vakil etib tayinlashiga rozilik bermaydi. Bu shaxs diplomatiya tilida "persona non grata" nomatlub shaxs deb ataladi. Vakolatxona boshliqlari turli kategoriyalarga bo'linadi. Oliy komissar quyidagi davlatlarda duayen vazifasini egallashi mumkin: Avstraliya, Hindiston, Kanada, Pokiston va Shri-Lanka. Vatikan diplomatiyasi o'ziga xos xususiyatga egadir. Vatikan mustaqil davlat hisoblanib, elchixonalarning aktiv va passiv huquqlaridan foydalanadi.

Tayanch iboralar: Diplomatik qabul turlari, Oliy darajadagi davlat tashriflari, xalqaro uchrashuvlarda diplomatik protokol, diplomatik bayonot to'g'risida tushuncha, muzokaralar olib borish, rasmiy tashriflar, protokol imzolash, muzokaralarning rivojlanish tarixi va yo'nalishlari.

Nazorat savollari:

1. Vakolatxonaning ish faoliyati qanday tashkil qilinadi?
2. Vakolatxonaning missiyadan farqi nimada?
3. Respublika tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida to'xtalib o'ting.

- Chet davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda tashqi siyosat mahkamalarining roli nimada ko'rinadi?

Adabiyotlar:

- Kissenger H. Diplomasy. – London, 1994.
- Ustav OON.
- Щетинин В.Д. Ekonomicheskaya diplomatiya: Uchebnoe posobie. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2001.
- Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.
- Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy steremonial i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.
- Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.jahon.mfa.uz

www.edu.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

www.tseu.uz

www.cer.uz

5-bob. Elchixonalarning tarkibiy tuzilishi va ularda ishning tashkil qilinishi

5.1. Elchixonaning tarkibiy tuzilishi

Elchixonaning matbuot (yoki axborot) bo'limi o'zi turgan davlat matbuotini muntazam kuzatib borishi barobarida muxbirlar, matbuot organlari bilan doimiy aloqada bo'lib, mahalliy matbuotdan axborot oladi. Shu bilan bir qatorda mahalliy matbuot organlarga o'z mamlakati va uning siyosati haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, elchixonalarda fan va texnika bo'limlari ham faoliyat olib boradilar.

Mamlakatdagi ichki siyosatni o'rghanish, davlat tashqi siyosatini muntazam kuzatib borish maqsadida elchixonada maslahatchi rahbarligida ish olib boruvchi diplomatik xodimlar guruhi tashkil etiladi.

Elchixonada tashriflar, qabullar chog'ida protokol tadbirlarini olib boruvchi va protokol masalalari bo'yicha tashqi ishlar vazirligi bilan aloqa olib boruvchi ikki xodim tayinlanadi. Bu sohada muayyan bir xillikka erishish talab qilinadi, ya'ni qabul marosimi va tashriflar belgilangan tartibda o'tkazilishi, ular turli anglashmovchiliklarga, noxush oqibatlarga olib kelmasligi lozim. Odatda, bunday ishlarga mazkur mamlakatlardagi protokol tartib-qoidalarini biladigan kotiblardan biri tayinlanadi. Tayinlangan xodim tashkiliy ishlarning o'tkazilishini kuzatadi. Odatda kotiblardan yoki maslahatchilardan biri elchixona ma'muriy-xo'jalik ishlariga mutasaddilik qiladi. Yirik davlatning elchixonasi quyidagi tarkibda tuzilgan bo'lishi kerak:

1. Ichki siyosat masalalari bo'yicha guruh;
2. Iqtisodiy masalalar bo'yicha guruh;
3. Matbuot bo'limi;
4. Konsullik bo'limi;
5. Xo'jalik bo'limi;
6. Elchi kotibiyati;
7. Harbiy va harbiy-dengiz attashesi mahkamasi (Harbiy attashe rahbarligida ishlaydi va elchi bilan muloqotda bo'ladi).

5.2. Elchixona ishini tashkil qilish

O'zi turgan mamlakatni o'rganish, uning siyosiy-iqtisodiy ahvoli, unda ro'y berayotgan muhim voqealar haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lismi va ularga to'g'ri baho berish nihoyatda muhimdir. Zero o'z vaqtida shu kabi ma'lumotlarni olish, uni o'rganish asosidagina diplomatik vakolatxona jiddiy va keng miqyosda faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bu vazifa ayniqsa, hozirda dunyodagi voqealar juda tez va keskin tus olayotgan bir paytda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifaning muvafaqiyatli bajarilishidan manfaatdor bo'lgan hukumatlar o'z qarorlarini to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilishi, u yoki bu masalalarga o'z vaqtida munosabat bildirishi talab qilinmoqda.

Elchixonaning axborot sohasidagi faoliyati keng qamrovli bo'lishi mamlakatda ro'y berayotgan siyosiy-iqtisodiy omillarning atroflicha tahlilidan iborat bo'lishi lozim. U siyosiy voqealarga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlarni ko'rsatishi, siyosat olamidagi omillarni tahlil qilishi, har bir mamlakatdagi mavjud peshqadam kuchlar, parlament guruhlarining elchixona turgan mamlakatdagi siyosiy voqealarga munosabatini ko'rsatishi lozim.

Mamlakatni o'rganishning asosiy uch yo'nalishini ko'rsatish mumkin: birinchidan, uning iqtisodiy rivojlanish tendenstiyalarini o'rganish lozim. Hozirgi sharoitda inqiroz holatlari, ularning tahlili va kelajagini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. **Ikkinchidan,** mamlakat hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlari, siyosiy partiyalarning kurashi, parlamentdagi ahvol,

ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning ahvoli, hukumat muassasalarining barqarorligi va albatta, ichki siyosatning tashqi siyosatga ta'sirini diqqat bilan o'rganish lozim. **Uchinchidan**, tashqi siyosat, uning asosiy yo'nalishlari, mazkur mamlakatning qo'shni va uzoq xorijiy davlatlar hamda davlatlar guruhi bilan o'zaro munosabatlari alohida e'tibor bilan o'rganilishi lozim.

Ko'pgina mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'zi turgan mamlakatning iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqida axborot to'plashni yaxshi tashkil qilish uchun ishni shunday uyushtirish lozimki, elchixonaning har bir diplomatik xodimi axborot to'plash uchun bazaga ega bo'lsin. Bunday baza mazkur mamlakatning matbuoti bo'lishi mumkin, chunki u axborot to'plashning birinchi manbai bo'lib hisoblanadi. Boshqa hollarda esa shaxsiy muloqot, ya'ni aholining turli tabaqasiga mansub shaxslar bilan suhbatlar tashkil qilish - mamlakat aholisini qiziqtirgan siyosiy va iqtisodiy masalalar xususida tassavurga ega bo'lishning muhim manbai hisoblanadi. Shu bilan birga mamlakat hayotining ayrim jihatlari xususida aniq tasavvur hosil qiladi.

Bo'limning biror xodimi yoki guruh rahbarlari har kungi matbuotdagi materiallarining qisqacha sharhini tayyorlaydi. Ayrim yirik davlatlarda juda ko'p gazetalar chiqadi. Ularni har kuni kuzatib borish mumkin emas. Shuning uchun mamlakatning siyosiy qiyofasini belgilovchi 5-10 ta eng yirik gazetalar olinadi va ulardagi materiallar asosida sharx tayyorlanadi. Shundan so'ng ertalab elchi yoki maslahatchi huzurida butun diplomatik tarkib to'planadi va sharhni tayyorlagan xodim u bilan barchani tanishtiradi. Bu 20-30 minut davom etadi. So'ng matbuotning shu kungi materiallari bilan tanishtirib boshqa xodimlar o'zlari shug'ullanadigan masalalar bo'yicha yangi materiallar bo'yicha axborot beradilar.

Bobning qisqacha mazmuni

Mamlakatdagi ichki siyosatni o'rganish, davlat tashqi siyosatini muntazam kuzatib borishda elchixonalar muo'im o'rinni tutadi. Elchixonalarda maslahatchi rahbarligida ish olib boruvchi diplomatik xodimlar guruhi tashkil

etiladi. Elchixonada tashriflar, qabullar chog’ida protokol tadbirlarini olib boruvchi va protokol masalalari bo'yicha tashqi ishlar vazirligi bilan aloqa olib boruvchi xodimlar faoliyat ko'rsatadi. Odatda, bunday ishlarga mazkur mamlakatlardagi protokol tartib-qoidalarini biladigan kotiblardan biri tayinlanadi. Elchixonada ishni rastional tashkil etishning asosiy maqsadi, o'zi turgan mamlakatni o'rganish, uning siyosiy-iqtisodiy ahvoli, unda ro'y berayotgan muhim voqealar haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lish va ularga to'g'ri baho berish nihoyatda muhimdir.

Tayanch iboralar: elchixona va missiya, elchixonaning tarkibi, maxsus maslaxatchilar, elchixonaning faoliyat ko'rsatish uslubi, xatlar bilan ishslash, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar bo'yicha tashqi siyosiy xizmat.

Nazorat savollari:

1. Elchixonaga tashrif buyuruvchilarning qabuli qanday uyushtiriladi?
2. Xatlar bilan ishslash, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar bo'yicha tashqi siyosiy xizmat qanday tashkil qilinadi?
3. Matbuot xodimlari va ommaviy-axborot organlari bilan ishslash uslubi to'g'risida to'xtalib o'ting.
4. Elchi va uning yordamchilarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Adabiyotlar:

1. Qosimov A.M. Diplomatik va konsullik xizmati. - Toshkent, 1998.
2. Feltxem R. Dj. Nastolnaya kniga diplomata. – Minsk, 2000.
3. Щетинин V.D. Ekonomicheskaya diplomatiya: Uchebnoe posobie. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2001.
4. Zaxarova L.M., Konovalova A.N. Osnovi diplomaticeskoy i konsulskoy sluzhi. – Minsk, 2001.
5. Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.

6. Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy sterimonal i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.
7. Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.mfer.uz

www.jahon.mfa.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

6-bob. Diplomatik vakillar va ularning bayonot berish shartlari

6.1. Diplomatik qabul shakllari

Diplomatik qabul tashqi siyosat doiralari, diplomatiya vakolatxonalari va diplomatlar tashqi siyosiy faoliyatining umumiy qabul qilingan va keng tarqalgan shaklidir. Rasmiy qabul muhim tadbirlar (milliy bayram, yubiley marosimlari, shartnomalar imzolanganligini nishonlash, shu bilan birga mamlakatda oliv martabali mexmonning delegasiya tashrifi) munosabati bilan Tashqi ishlar vazirligida yoki elchixonaning doimiy faoliyatida amalga oshiriladi.

Diplomatik vakolatxonalar tomonidan uyushtiriladigan qabul mazkur mamlakat bilan elchixona o'rtasida munosabatlar o'rnatish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday qabullarda xorijiy diplomatlar o'z davlatlari siyosatini tushuntiradilar, o'zi turgan mamlakat haqida axborot toplashadi va muhim muomalalar bo'yicha fikr almashadilar. Shuning uchun har bir qabul uning uyushtiruvchilari va mehmonlar uchun muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakat rahbar organlari tomonidan oliv martabali yoki delegasiyalar sharafiga uyushtiriladigan qabullar yana ham qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mamlakatlar mehmonlarni qabul qilishniig tarixiy an'analarini yaxshi qo'shnichilik munosabatlari sifatida saqlab keladilar.

Qabul vaqtida diplomat uning davlatini qiziqtirayotgan axborotlarni olish, boshqa manbalardan olingan axborotlarning qay darajada to'g'riligini qiyoslash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z davlatining tegishli siyosatini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ro'y berayotgan voqealarni ta'riflash diplomatiya

faoliyatining muhim sohasi bo'lib, u hozirgi kunda yuqori baholanadi. Mazkur sohani o'rganishda xorijiy davlatlarda ro'y berayotgan voqealarga, ilmiy muassasalar jurnalistik va diplomatik idoralarda kutilayotgan talablar o'rtasidagi farqqa z'tibor qaratilishi lozim.

6.2. Xalqaro muzokaralarda diplomatik bayonnomalar

Material to'plash shakli va usullari, tahliliy ob'ektivlarga salbiy ta'sir qiluvchi sub'ektiv holatlarga katta ahamiyat beriladi. Shu bilan birga diplomatlar tayyorlagan hisobotlardan davlat tashqi siyosati yo'nalashini belgilashda foydalanish ham muhimdir. Diplomatik uchrashuvlar Potsdam (1945), shu bilan birga Dubarton-Oks shaharlarida o'tkazildi. 1945 yildagi San-Franstisko konferenziyasida BMT Ustavi qabul qilindi.

Hozirgi paytda ko'p tomonlama diplomatiya asosan ikki shaklda: aniq maqsadli chaqiriluvchi xalqaro anjumanlar va xalqaro tashkilotlar sessiyalari shaklida amalga oshirilmoqda.

Xalqaro anjumanlar ayrim hollarda kengash deb ham ataladi (Evropa xavfsizlik kengashi). Ko'p tomonlama diplomatiyaning yana bir shakli xalqaro tashkilotlarning yillik sessiyalaridir. Bular BMT Bosh Assambleyasining yillik sessiyasi, shu bilan birga ko'p sonli tashkilotlarning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, YuNESKO, YuNISEF va boshqalarning shu kabi tadbirlari va boshqalar.

Xalqaro kengash, anjuman va tashkilotlarning turli-tumanligiga qaramay, ularning muvaffaqiyatli ish olib borishi uchun muayyan tartibga, aniq me'yorlar va qoidalarga rioya qilish lozimki, ular mazkur anjumanlarning faoliyatini tartibga solishi kerak.

6.3. Muzokaralar-diplomatiyaning shakli sifatida.

Bugungi kunda muzokaralar jamiyat, davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Hozirgi kunda aholining juda

katta qismi xalqaro munosabatlarda muzokaralarning amaliy zaruriyati va muzokaralar olib borish san'atini egallash zarurligini tushunib etdilar.

G'arbiy davlatlar siyosiy, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlarni tinchlik yo'li bilan hal qilinishi, uning mexanizmlarini ishlab chiqish asosan II-jahon urushidan so'ng amalga oshirildi.

Muzokaralarda asosan jiddiy masalalarni hal qilish jarayonida foydalaniladi. Vujudga kelgan muommalarni qonunchilik yoki boshqa meyoriyhujjalarni asosida hal qilish mumkin bo'lsa, unda muzokaralarga zhtiyoy sezilmaydi. Muzokaralar asosan ikki tomon uchun manfaatli bo'lgan muammoni muhokama qilish va birgalikda qaror qabul qilinishi uchun hisoblanadi.

Siyosat bobida muzokaralar o'z qarashlari, g'oyalari ishonchlarini targ'ib qilish uchun qo'llanishi mumkin. Bu holat "Sovuq urush" davriga xarkterli edi. Ayrim hollarda muzokaralardan paydo bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish uchun foydalanish mumkin.

Tarixiy jihatdan muzokaralarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning shakllari uch yo'nalishda boradi:

Muzokaralar olib borish uchun uning mohiyatini tushunib etish lozim. Muzokaralar birinchi navbatda muammoni hal qilishga qaratilgan qo'shma hamkorlik faoliyatidir. Muzokaralarda odatda ikki qatnashchi bo'lib, ularning manfaatlari umuman bir xil bo'ladi, qisman esa bir-biriga mos kelmaydi. Har bir konkret faoliyatda moslik yoki nomoslik nisbati ko'p yoki kam bo'lishi mumkin, ular har bir muzokarada uchraydi. Muzokaralarning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularni asosan ikkita katta guruhga bo'lisch mumkin:

1. Bo'hron va ziddiyatli holatlarni tartibga solish bilan bog'liq muzokaralar;
2. Hamkorlik doirasida olib boriladigan muzokaralar.

Bo'hron va ziddiyatli holatlarda muzokaralarning muqobili sifatida zo'rovonlik harakatlari maydonga chiqishi mumkin. Bu esa muzokara ishtirokchilarining zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Bunday hollarda tomonlar uchinchi shaxs-vositachilar yordamiga muxtoj bo'ladilar. Muzokaralarning qanday darajada o'tkazilishi, unda qancha davlatlarning

ishtirok etishi, muzokaralar bir marta o'tkazilishi yoki doimiy o'tkazilib turilishiga ko'ra farqlanadi. Ko'p tomonlama muzokaralar nisbatan murakkab tuzilishga egadir. Bunday muzokaralarda o'zaro maqbul bo'lган qaror qabul qilish ancha qiyin kechadi va bu jarayonning uch asosiy bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin:

- muzokaralarga tayyorlanish;
- ularni o'tkazish;
- muzokaralar natijalarini tahlil qilish va erishilgan kelishuvlarni bajarish.

Muzokaralar tomonlar muzokara o'tkazishga o'tirishlaridan avvalroq boshlanadi. Muzokaralarga tayyorlanish o'zaro bog'liq bo'lган ikki yo'naliш bo'yicha ish olib borishni nazarda tutadi, bular tashqi masalalar va muzokalararning asosiy qismini tayyorlash, tashkiliy masalalarga delegasiyalarni shakllantirish, uchrashuv joyi, vaqt hamda o'rinni aniqlash, har bir majlisning kun tartibi va boshqalar kiradi.

6.4. Diplomatik suhbat

Diplomatik suhbat diplomatik faoliyat amaliyotidagi eng qiyin va murakkab, eng muhim va mas'uliyatli, eng qiziqarli va foydali tadbir hisoblanadi.

Diplomatik suhbat olib borish sirlarini bilmagan, shu bilan birga o'zi turgan mamlakatda o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini olib bormaydigan xodimning o'zini to'laqonli diplomat shaxs deb hisoblashga ma'naviy huquqi yo'qdir. Ko'p hollarda tayyorlanadigan hujjat shaxsiy suhbatlar, uchrashuvlar, baxslar natijasidan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur hujjat diplomatik xizmatning faol tomonlarini qayd etadi va umumlashtiradi.

Diplomatik suhbatlarning aniq vazifalari diplomat davlatining tashqi siyosiy programmasi, milliy manfaatlari va o'zi turgan davlat bilan o'zaro munosabatlari xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Diplomatik suhbat quyidagi maqsad va yo'naliшlarga ega:

- o'zi turgan mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo, madaniy va ilmiy munosabatlarni rivojlantirish;
- o'z davlatining tashqi siyosatini bayon qilish;
- o'zi turgan mamlakat bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirishga intilish;
- barcha qiziqtirgan masalalar bo'yicha o'zi turgan mamlakatning pozistiyalarini aniqlash;
- o'zi turgan mamlakat, uning tashqi va ichki siyosati, mamlakatda ro'y berayotgan siyosiy, iqtisodiy va boshqa jarayonlarni chuqur o'rganish, davlat va jamoat arboblari haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- o'zi turgan mamlakat bilan o'z davlati o'rtaсидаги ko'п tomonlama aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar va takliflar haqida markazni doimo xabardor qilib turish.

Diplomatik aloqalar haqidagi 1961 yilgi Vena konvenstiyasining 3-moddasiga muvofiq diplomatik vakolatxonaning bu xususidagi vazifasi quyidagilar:

- a) o'zi turgan davlatda akkreditastiya qiluvchi davlatning vakili bo'lish;
- b) o'zi turgan davlatda akkereditastiya qiluvchi davlat va uning fuqarolari manfaatlarini xalqaro huquq doirasida himoya qilish;
- c) o'zi turgan davlat bilan muzokaralar olib borish;
- d) barcha qonuniy vositalar bilan o'zi turgan davlatdagи sharoit va voqealarni aniqlash hamda ular haqida o'z xukumatini xabardor qilish;
- e) ikki davlat o'rtaсидаги do'stona munosabatlarni rag'batlantirish.

Diplomatik suhbat davomida diplomatning mutaxassis sifatida keng dunyo qarashi, aql-idroki, tashqi siyosat bo'yicha malakasi, uning siyosiy va kasbiy bilimi, tayyorgarligi va keng mushohadasida o'z aksini topadi.

Diplomatik suhbat diplomatning shu sohadagi faoliyatining yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Bu suhbat hech bir ma'lumot va yig'ilgan materiallardan foydalanimagan holda dialog tarzida tashkil qilinadi. Shuning uchun diplomat

xotirasida behisob dalillar saqlanishi lozim. U quyidagilarni albatta bilishi lozim:

- asosiy xalqaro shartnomalar;
- o'zi turgan mamlakat bilan munosabatlarining xukuqiy asosi;
- xalqaro munosabatlar, xalqaro huquq, huquq tarixi;
- jahon tarixining asosiy momentlari, o'z mamlakati tarixi, jahon san'ati tarixi va o'zi turgan mamlakatning tarixi;
- o'z mamlakati va o'zi turgan mamlakat madaniyati va san'atining hozirgi ahvoli.

Mazkur sohalardagi bilimlarsiz siyosiy arboblар, diplomatlar, madaniyat arboblari va olimlar bilan munosabatlar o'rnatish imkoni yo'q.

Diplomat Tashqi ishlар vazirligi yoki boshqa idoraga chaqirilganda, keng tarqalgan amaliyotga ko'ra, taklifdan kuzatilgan maqsad xabar qilinmaganda bo'lajak suhbat haqida so'rash o'rinsiz hisoblanadi. Ana shunday holatlarda juda jiddiy tayyorgarlik lozim bo'ladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, suhbatning muvaffaqiyatli bo'lismeni ta'minlovchi omillardan biri - vakolatxona ish olib borayotgan mamlakat bilan muhokama qilinayotgan masalalar va boshqa konkret ishlarni hisobga olish, muhokama qay darajada ekanligiga e'tibor berishdan iborat. Shu bilan birga ikki tomonlama va xalqaro munosabatlarning qator muammolarini atroflicha o'rganish zarur. Bir qator masalalar bo'yicha axborotga ega bo'lган, diplomat bo'lajak tashrifga yaxshi tayyorlanishi lozim o'amda suhbat jarayonida o'ta nazokatlilik va bosiqlik bilan o'z davlatining manfaatlarini himoya qilishi lozim.

Odamlarga muayyan va e'tiborli munosabat, bosiqlik, odamshavandalik va suhbat olib borish mahorati diplomat uchun eng zarur xislatlardan hisoblanadi.

Istalgan suhbatlarda diplomat o'zi turgan mamlakat hukumatining ichki va tashqi siyosatini tanqid qilmasligi lozim. Shu bilan birga mamlakat urf-odatlari, an'analarini hurmat qilishi va alohida shaxslar haqida nojo'ya fikr

bildirmasligi lozim. Bunday tanqid yoki munosabat o'zi turgan mamlakatning ichki siyosatiga aralashuv sifatida baholanishi mumkin. Diplomatik amaliyotdan ma'lumki, yuqorida ta'kidlangan tarzda tanqidiy fikr bildirgan diplomatlar odatda «nomaqbul shaxs» («persona non grata») deb e'lon qilinadi. Diplomat faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatning xukumati diplomatik munosabatlar o'rnatgan uchinchi mamlakatlar hukumatlarini tanqid qilishi ham tavsiya qilinmaydi.

Ayrim hollarda diplomat bilan koalition hukumat tarkibiga kirmagan muxolif partiyalari vakillari uchrashib, ular hukumatni tanqid qilishga moyil bo'ladilar. Ba'zan ular diplomatning hukumat siyosati haqidagi fikrlarini so'raydilar. Bunday savolga javob berishdan qochgan ma'qul. Jurnalistlar bilan suhbatlarda juda ehtiyot bo'lish lozim. Chunki jurnalistlar, garchi diplomatlar ularga hech qanday ma'lumot bermagan bo'lsa ham, u bilan o'tkazgan suhbat dalilidan foydalanishlari mumkin. Aynan ana shunday jurnalistlar o'zlari o'ylab topgan xabarlarni «Diplomatik vakolatxonaga yaqin doiralar» ga ishora qilib e'lon qiladilar.

Ba'zida suhbatdosh diplomatga norasmiy tarzda suhbatlashishni taklif qiladi. Bunday usul diplomatning xushyorligini susaytirish uchun qo'llaniladi. Natijada bunday holatlarda juda ham xushyor bo'lish zarur.

Diplomatik suhbatda o'zaro manfaatdorlik ruhi hukm suradi. Har bir suhbatdosh sherigidan o'ziga noma'lum bo'lgan ma'lumot yoki xabarni olishga intiladi, shuning uchun suhbat ikki tamonlama bo'lishi lozim. O'z tomonidan davlat siriga daxldor bo'limgan barcha ma'lumotni bayon qilishi mumkin.

Davlat vakilining xorijiy davlat vakili bilan uyushtiradigan diplomatik suhbat - tashqi siyosiy tadbir sifatida baholanishi mumkin. U suhbat asosida markazga telegraf axboroti jo'natiladi, natijada markazda va diplomatik vakolatxonada zarur tezkor choralar ko'rildi.

Vaqtni «his qilish»ga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Suhbat davomida soatga qarash hurmatsizlik sifatida baholanishi mumkin. Bu harakat odatda suhbatni tugatishga ishora deb qabul qilinadi. Ayrim hollarda

diplomatik suhbat ishtirokchilari qarama-qarshi siyosiy qarashlarga ega sharoitda boshlanishi mumkin. Biroq, mahorat bilan tashkil qilingan diplomatik suhbat qanday natijalar bilan tugasa ham, u munosabatlarning yomonlashuviga sabab bo'la olmaydi. Suhbatga tayyorlanish va suhbatdoshga ma'lumotlar berish jarayonida uchinchi shaxslardan olingan baholarga munosabat bildirishda juda ehtiyyot bo'lish lozim.

Suhbat yozuvi uning mazmunini aniq aks ettirishi lozim. Zarur hollarda diplomatiya amaliyotida quyidagi usul qo'llaniladi: suhbatdoshning ismi, sharifi, unvoni, suhbat o'tkazilgan sana, davomiyligi, kimning tashabbusi bilan suhbat o'tkazilganligi, tarjimonning qatnashuvi haqida ma'lumotlar aks ettiriladi.

Diplomatik yozishma ham diplomatiya singari uzoq boy tarixga ega. Davlatlar diplomatik faoliyatning bir shakli bo'lган mazkur yozishma muayyan davlatning tuzilishi, tili va madaniyatiga ega. Diplomatik yozishmaning hujjatlari rasmiy xujjat bo'lib, turini tanlash alohida ahamiyatga ega. Hujjatning turi muayyan bir marosimga muvofiq bo'lishi lozim, chunki bunda mazkur hujjatning mazmunidan kelib chiqish, diplomatik yozishma texnikasini egallash, o'zi turgan mamlakatning an'analarini hisobga olish zarur. Diplomatik yozishmaga javob berish lozim, chunki yozishmaga javob bermaslik esa muayyan munosabatni ifodalaydi.

Bobning qisqacha mazmuni

Diplomatik vakolatxonalar tomonidan uyushtiriladigan qabul mazkur mamlakat bilan elchixona o'rtaida munosabatlar o'rnatish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday qabullarda xorijiy diplomatlar o'z davlatlari siyosatini tushuntiradilar, o'zi turgan mamlakat haqida axborot to'plashadi va muhim muomalalar bo'yicha fikr almashadilar. Bugungi kunda muzokaralar jamiyat, davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Muzokaralarda asosan jiddiy masalalarni hal qilish jarayonida foydalaniladi. Diplomatik suhbat diplomatik faoliyat amaliyotidagi

eng qiyin va murakkab, eng muhim va mas'uliyatli, eng qiziqarli va foydali tadbir hisoblanadi. Diplomatik suhbatlarning aniq vazifalari diplomat davlatining tashqi siyosiy programmasi, milliy manfaatlari va o'zi turgan davlat bilan o'zaro munosabatlari xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Tayanch iboralar: Diplomatik qabul turlari, oliv darajadagi davlat tashriflari, xalqaro uchrashuvlarda diplomatik protokol, diplomatik bayonot, muzokaralar olib borish, diplomatiyaning ko'rinishi, rasmiy tashriflar, protokol imzolash, muzokaralarning rivojlanish tarixi va yo'nalishlari.

Nazorat savollari:

1. Siyosiy maslahatlarning ko'p tomonlama va ikki tomonlama kelishuvlari deganda nimani tushunasiz?
2. Davlatlararo o'zaro kelishuvlarning predmetini nima tashkil etadi?
3. Diplomatik uchrashuvlarning tashkiliy masalalari deganda nimani tushunasiz?
4. Diplomatik bayonotlarning qabul qilinishi va o'zaro kelishuvlarning xususiy jihatlari to'g'risida tushuncha bering.
5. Xalqaro konferenstiyalarning o'tkazilish tartibini yoriting.

Adabiyotlar:

1. Deklorastiya o prinzipax mejdunarodnogo prava, prinyataya Generalnoy Assambliey OON 24 oktyabrya 1970 g.
2. Zaklyuchitelniy akt Sovetçaniya po bezopasnosti i sotrudnichestvu v Evrope ot 1 avgusta 1975 g.
3. Lekstionniy material podborka gazet i jurnalov, materiali Tashkentskoy vstrechi gruppi "6+2" po Afganistanu pod egidoy OON.
4. Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.

5. Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy sterimonal i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.
6. Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.
7. Narodnoe slovo: 2000, 23 yanvarya;
2001, 7 aprelya, 6 iyunya;
2002, 13, 14, 15, 16 marta.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.mfer.uz

www.jahon.mfa.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

7-bob. Diplomatik imtiyozlar va immunitetlar

7.1. Diplomatik immunitet va imtiyozlarning ahamiyati

Diplomatik immunitet va imtiyozlar alohida huquq va imtiyozlar majmui bo'lib, xorijiy diplomatlarga beriladi. Mazkur immunitet va imtiyozlar bilan o'zi turgan mamlakatlardagi diplomatik vakillarga o'z vazifalarini bajarish uchun ham beriladi. Davlatlar xorijiy diplomatlarga bunday huquq va imtiyozlar berar ekan, ularni o'z yuridikstiyasidan ozod qiladi. Boshqacha qilib aytganda, xorijiy diplomatlar va diplomatik vakolatxonalarda “mutlaq ozodlik” dan foydalanadilar. Mazkur prinstip davlatlarning suvereniteti va xalqaro huquq sub'ekti ekanligi bilan izohlanadi.

Diplomatik immunitet va imtiyozlarning hajmi va xarakteri diplomatik aloqlar haqidagi 1961 yilgi Vena konvenstiyasida to'la aks ettirilgan. Konvenstiya hozirgi paytda muhim xalqaro huquqiy hujjat hisoblanib, uning asosida davlatlar orasidagi munosabatlar jarayonida kelib chiqadigan turli masalalar ko'rib chiqiladi va tartibga solinadi. Bundan tashqari keyinchalik yana boshqa kelishuvlar qabul qilingan bo'lib, ular ham xalqaro munosabatlarni tartibga solish masalasiga aloqadordir. Bular - Konsullik aloqalari haqidagi 1963 yilgi Vena konvenstiyasi. Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlarda davlatlar vakilligi to'g'risidagi 1975 yilgi Vena konvenstiyasi.

Diplomatik kartochka berilishi uchun diplomatik martaba ko'rsatilgan diplomatik pasport asos bo'lib, xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, u yoki bu xodimning diplomatik martabasi uni ishga jo'natuvchi davlat tomonidan beriladigan diplomatik pasportda tasdiqlanadi.

Diplomatik immunitet va imtiyozlar shaxsiy manfaat nuqtai-nazaridan berilmay, balki diplomat va diplomatik vakolatxonalar tomonidan o'z vazifalarini samarali ado etishlari uchun beriladi. Diplomatik immunitet diplomatga shaxsan beriladi, imtiyozlar esa kelishuv asosida shaxslar orasida oldi-berdi qilinishi mumkin emas. Diplomatik immunitetning teng tarzda kamsitishlarsiz, tenglik asosida beriladi.

7.2. Elchixonalarda diplomatik xodimlar, ma'muriy-texnik va xizmat qiluvchi xodimlar uchun immunitet va imtiyozlar

Elchixonalarda diplomatik xodimlardan tashqari ma'muriy texnik va xizmat qiluvchi xodimlar ham faoliyat ko'rsatadi. So'nggi yillar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlatlar tomonidan diplomatik immunitet va imtiyozlar hajmidagi farqlar yo'qolib bormoqda. 1961 yilgi Vena konvensiyasi ma'muriy-texnik xodimlarni ancha keng ko'lamlı diplomatik immunitet va imtiyozlar bilan ta'minlagan. Ular ham diplomatlar foydalanadigan diplomatik imtiyoz va huquqlarga ega; farqi shundaki, fuqarolik va ma'muriy javobgarlikdan ular faqat xizmat vazifasini bajarish paytida xatolikka yo'l qo'ygan xollarida ozod qilinadilar. Xorijiy diplomatik vakolatxonalar va xodimlariga "vakolatxona vazifasini bajarish uchun barcha imkoniyat" (Vena konvensiyasi 25-modda) ni berib, davlatlar diplomatik xodimlarning o'zi turgan mamlakat qonun va qarorini hurmat qilishi va ichki ishlarga aralashmaslik prinstipidan kelib chiqadilar.

Vena konvensiyasi diplomatlarga o'zi turgan mamlakatni o'rghanish, o'z davlati siyosatini bayon etish imkonini beradi. Biroq bu diplomatga turli salbiy xarakterdagi bayonotlar bilan chiqishi uchun imkon bermaydi. 1961 yilgi Vena konvensiyasi diplomatning "o'zi turgan davlatlarda o'z manfaati uchun kasbiy yoki tijorat faoliyati bilan shug'ullanishini" man etadi (1961 yil Vena konvensiyasi, 212-modda).

7.3. Ishonch yorliklarini topshirish marosimi va diplomatik imtiyozlarni ta'minlash

Dunyoning etakchi davlatlaridagi tartibga ko'ra ishonch yorliklarini topshirish marosimi davlat boshlig'i qarorgohiga tashrifdan boshlanadi. Aksariyat hollarda elchilar maxsus kiyimda (ordenlar bilan) frak yoki milliy kiyimda tashrif buyuradilar. Ularga elchixonaning etakchi diplomatlari - maslahatchilar, kotiblar, harbiy attashe - odatda qora rangli kostyumda, harbiylar - bayram harbiy kiyimida hamrohlik qiladilar.

Ishonch yorliqlari topshirish marosimi elchining o'z vazifasini bajarishga kirishishining boshlanishi hisoblanadi. Elchi ikki tomonlama protokol qoidalariga muvofiq Tashqi ishlar vaziri, uning o'rribbosari, boshqarma boshliqlari, shu bilan birga boshqa vazirlar va rasmiy kishilar huzuriga tashrif buyuradi. Dastlab diplomatik korpus oqsoqoli (duayen) bilan uchrashadi.

7.4. Konsulxona va konsullik immuniteti

Konsulxona - davlatning tashqi aloqalarini olib boradigan organi, muayyan vazifani bajarish uchun o'zga davlat territoriyasida shu davlatning ruxsati bilan ta'sis etiladi. Konsul xizmat ko'rsatadigan rayon va konsulxona turadigan joy har ikki davlat tomonidan kelishilgan holda belgilanadi. Konsullik immuniteti - konsulxonaga, konsulxona xodimlariga o'z vazifalarini normal bajarish uchun beriladigan imtiyozlar. Konsullik immuniteti masalalari har bir davlatning ichki qonunchiligi, xalqaro konvenstiya va tartib qoida asosida boshqariladi. Konsullik aloqalari to'g'risidagi 1963 yilgi Vena konvenstiyasi konsullik immunititeti kodifikasiyasini hisoblanadi.

Konsullik vakillari shaxsiy daxlsizlikka ega bo'lib, og'ir jinoyat qilgan yoki sud hukmi bilan qonuniy kuchga kirgan taqdirda qamoqqa olinishi mumkin. Ular o'z faoliyatida jinoiy, ma'muriy va grajdaniqlik imtiyozlaridan foydalanadilar.

Konsulni tayinlagan davlat uni konsullik patenti bilan ta'minlaydi. Patentda konsulning ismi, familiyasi, darajasi, konsullik okrugi va konsulxona turadigan joy ko'rsatiladi. Konsulni tayinlash, shuningdek chet el konsuliga o'z faoliyatini boshlash uchun ruxsat berishi, har bir davlatning ichki qonuni asosida amalga oshiriladi. Konsul bir kancha huquq va imtiyozlarga, shaxsiy daxlsizlikka ega; u bojxona to'lovlari, soliq va boshqa shaxsiy majburiyatlardan ozod etiladi.

Bobning qisqacha mazmuni

Diplomatik immunitet va imtiyozlar alohida huquq va imtiyozlar majmui bo'lib, xorijiy diplomatlarga beriladi. Mazkur immunitet va imtiyozlar bilan o'zi turgan mamlakatlardagi diplomatik vakillarga o'z vazifalarini bajarish uchun ham beriladi. Mazkur tamoyillar davlatlarning suvereniteti va xalqaro huquq sub'ekti ekanligi bilan izohlanadi. Diplomatik immunitet va imtiyozlarning diplomatik aloqalar haqidagi 1961 yilgi Vena konvenstiyasida to'la aks ettirilgan.

Tayanch iboralar: diplomatik imtiyozlar va immunitetlar, diplomatik immunitetning roli va ahamiyati, diplomatik immunitetning tarixiy rivojlanish va huquqiy asoslari, xalqaro amaliyotda zamonaviy immunitet turlari va taqsimlanishi.

Nazorat savollari:

Agreman tushunchasining tub mohiyati nimadan iborat?

Ishonch yorliqlari nima maqsadda beriladi?

Diplomatlar va ularning oila a'zolari uchun qanday fiskal imtiyozlarning berilishi ko'zda tutiladi?

Urush holati e'lon qilingan vaziyatda diplomatik immunitet va imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarini asoslab bering.

Elchixona xodimlari uchun bojxona to'lovlari va boshqa soliq turlari amal qilishi mumkinmi?

Adabiyotlar:

Israelyan V.L. Diplomati listom k listu. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1990.

Qosimov A.M. Diplomatik va konsullik xizmati. - Toshkent, 1998.

Щетинин V.D. Ekonomicheskaya diplomatiya: Uchebnoe posobie. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2001.

Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.

Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy sterimonal i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.

Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.mfer.uz

www.jahon.mfa.uz

www.edu.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

www.review.uz

8-bob. Xalqaro tashkilotlar va davlat tashqi siyosiy xizmati

8.1. Xalqaro tashkilotlar tushunchasi, tarixiy tiplari va turlari

Parlament, davlat boshlig'i, hukumat, TIV tashqi aloqalar bilan shug'ullanuvchi asosiy davlat organlari hisoblanadi. Bulardan tashqari yana boshqa idoralar ham ko'p tamonlama munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Konun chiqaruvchi organlar, davlat boshlig'i va hukumat birinchi navbatda davlat ichidagi boshqaruvning davlat organlari sanaladi.

Xalqaro munosbatlar, ayniqsa ko'p tamonlama munosabatlar rivojlanishi jarayonida davlatlar maxsus xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida "xalqaro va davlatlararo tashqi aloqalar organlarini ta'sis etadilar. Bunday organlarning tuzilishi, uning tarkibi va faoliyati tamoyillari davlatlar tomonidan mustaqil aniqlanadi.

Xalqaro munosabatlarning suveren qatnashchisi bo'lgan davlatlar tomonidan tuziladigan davlatlararo tashqi aloqalar organlari sirasiga eng avvalo xalqaro tashkilotlar kiradi. Tashqi aloqalarning davlat organlaridan farqi shundaki, xalqaro tashkilotlarning yagona vazifasi xalqaro munosabatlarni rivojlantirish va bu tashkilotlar qatnashchilari bo'lgan ichki ishlarga aralashmaslikdan iborat. Bu haqda butunjahon tashkiloti bo'lgan BMT Nizomida quyidagilar yozilgan: "Mazkur Nizom BMTga istalgan davlat ichki kompetenstiyasiga mansub deb hisoblanadigan ishlarga aralashish huquqini bermaydi va BMT a'zolaridan ruxsat berilishi so'raladigan ishlarni taqdim etishni talab qilmaydi" (Ustav OON p.7 str.28).

Xalqaro tashkilotlarning davlatdan yuqori tashkilot emas, balki davlatlarning tashqi aloqalar organlari ekaniligiga shubha yo'q, zero bu tushuncha haqiqiy dalillarga tayanadi. Xalqaro tashkilotlar tushunchasi, ularning tabiatи, davlatlararo munosabatlardagi o'rni va ahamiyati keskin siyosiy bahslar borayotgan, qator doktrinalar, loyihibar qabul qilingan ayrim masalalarda o'z aksini topmoqda.

BMT tashkil topishi davrida paydo bo'lgan ayrim nazariyalar keyinchalik funkstional plyuralizm naxzariyasi sifatida rivojlantirildi va "transmilliy ittifoq va manfaatlar" tuzilishi g'oyasiga aylanadi. Mazkur nazariyaga binoan maxsus vazifalarni bajaruvchi xalqaro tashkilotlar o'z doirasiga mazkur muammolar

bilan shug'ullanuvchi milliy guruhlarni jalb qilishi va asta sekin umumiy manfaatlarni transmilliy tenglashtirish orqali integrastiyalangan siyosiy tuzilmalarni tuzishi va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etishi lozim. (G.N. Morzov Mejdunarodnaya organizastiya. Nekotorie voprosi teorii. M., 1974 g.)

Davlatning xalqaro munosabatlarida xalaqaro tashkilotlarning ahamiyati va o'rni qanday? Zamonaviy xalqaro tashkilotlar davlat usti tuzilmasi emas. Bu tashkilotlar xarakteri urganilayotgan muammoni ularni tuzgan davlatlarga qaratishlari lozim. Hozirgi sharoitda xalqaro tashkilotlar tashqi aloqalar tizimi organi hisoblanadi.

Diplomatik vakolatxonalarining u yoki bu shakli

va faoliyati o'z holicha amalga oshirilmaydi. Xalqaro munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan davlatlarning o'zaro munosabatlari o'zgaruvchan xalqaro aloqalar va munosabatlarning ehtiyojlariga ko'ra o'zgarib boradi. Diplomatik vakolatxona, davlatlar ikki tomonlama diplomatik munosabatlarning rivojlanish kanali bo'lib hisoblanadi. Biroq hozirgi sharoitda davlatlararo ko'p tomonlama munosabatlar shakli keng miqyosda rivojlanmoqda. Hozirgi kunda birorta davlat yo'qki, uning tashqi ishlar vazirligi faoliyatini o'rganuvchi organ bo'lmasa. Xalqaro taraqqiyot ehtiyoji turli xalqaro tashkilotlarning tuzilishiga olib keldi. Shu munosabat bilan davlatlar vakolatxonalarining turli shakllari paydo bo'ldi.

Ba'zi butunjahon yoki xalqaro tashkilotlarda doimiy vakolatxonalar bo'lsa, mazkur tashkilotlarning tegishli organlarining yig'ilishlari yoki sessiyalarida delegastion vakillar ishtirok etadi.

Bularning barchasi diplomatik faoliyatda ikkinchi jahon urushidan so'ng ro'y bergen yangiliklardir.

Hozirgi xalqaro tashkilotlarni dunyoda ro'y berayotgan jarayonlar va sabablarga ko'ra 4 guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga mansub xalqaro tashkilotlar - muhim iqtisodiy jarayonlar, ya'ni davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, barcha davlatlarda rejali va proporsional rivojlanish qonunlarning amal qilishiga asoslanib faoliyat ko'rsatadi.

Ikkinchi guruhga xos xalqaro tashkilotlar yirik davlatlarning ta'sirida bo'ladi. Mazkur tashkilotlarning dastur va maqsadlarida yirik industrial davlatlar manfaatlarini himoya qilish aks etadi.

Xalqaro tashkilotlarning uchinchi guruhiga, Osiyo va Afrikada tashkil qilinayotgan xalqaro tashkilotlar, turli mintaqaviy birlashma va tashkilotlar mansubdir.

To'rtinchi guruhga turli ijtimoiy - siyosiy tuzum, iqtisodiy va tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlaridagi davlatlar a'zo bo'lgan butunjahon tashkilotlari kiradi.

Bunday tashkilotlarning namunasi Birlashgan Millatlar Tashkilotidir. BMTning faoliyati, ro'y berayotgan muhim tarixiy o'zgarishlar bilan belgilanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan xalqaro tashkilotlar 4 ko'rinishining o'ziga xos xususiyatlarini ham tahlil qilishimiz mumkin. O'z faoliyat mazmuniga ko'ra xalqaro tashkilotlarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: xalqaro siyosiy tashkilotlar; xalqaro iqtisodiy tashkilotlar; xalqaro madaniy tashkilotlar; xalqaro ixtisoslashtirilgan idoralararo tashkilotlar (BMT ning ixtisoslashtirilgan idoralari).

Katnashchilar doirasi va faoliyatining geografik jihatlariga ko'ra xalqaro tashkilotlar butunjahon universal tashkilotlar (BMT va ko'pgina ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar) va xalqaro mintaqaviy tashkilotlar (Arab davlatlari ligasi, ASEAN, Afrika birligi tashkiloti va boshkalar) ga bo'linadi.

8.2. Davlat tashqi aloqalar organlari haqida tushuncha, ularning turlari va vazifalari

Tashqi ishlar vazirligi bevosita tashqi siyosatni amalga oshiruvchi asosiy tizim hisoblanadi. Tashqi ishlar vazirligi davlat va hukumatning xorijdagi

tashqi aloqalarida doimiy vakili hisoblanadi. Mamlakat markazida esa akkreditastiya qilingan, tashrif buyurgan elchilar bilan, chet davlatlarning vazillari bilan munosabatlarda davlat nomidan ish olib boradi. Tashqi ishlar vazirligi davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish bo'yicha tezkor ish olib boradi. U muntazam ravishda hukumatga tashqi siyosat masalalari bo'yicha axborot va takliflar tayyorlaydi. Bu sohada qabul qilingan qarorlarni amalga oshiradi. Bir qator davlatlarda Tashqi ishlar vazirligi o'z faoliyatida tashqi siyosat masalalarida va xorijiy davlatlar bilan aloqalarga duch kelushi barcha idoralar vazifasini muntazam kuzatadi va ularga hukumat tomonidan topshirilgan vazifalarni bajarishda yordam beradi.

Tashqi ishlar vazirligi chet davatlardagi diplomatik vakolatxonalarga (doimiy va vaktinchalik) rahbarlik qiladi, tashqi siyosat kadrlarini tayyorlaydi, tashqi siyosat masalalari bo'yicha strategik muammolarni tahlil qilishga rahbarlik qiladi va tashqi siyosat ishlarini o'rganadi. Ushbu masalalar markaziy apparat ishining xarakteridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

8.3. Tashqi aloqalar markaziy organlari

Tashqi aloqalarning konstitustiyaviy, siyosiy organlari va mansabdor shaxslarga quyidagilar mansubdir:

- odatda mamlakat aholisi tomonidan saylanadigan hokimiyatning oliv qonunchilik organlari;
- kollegial yoki yolg'iz davlat boshlig'i;
- hukumat va birinchi navbatda hukumat boshlig'i;
- tashqi ishlar vaziri va tashqi ishlar vazirligining markaziy apparati.

Respublika boshqaruvi amal qiluvchi barcha davatlarda siyosatda bo'lgani kabi, tashqi siyosat sohasida ham oliv davlat organi hokimiyatning qonun chiqaruvchi oliv organi hisoblanadi.

Hokimiyat qonun chiqaruvchi organining tashqi aloqalar sohasida muayyan vazifalarni bajarish, hatto qadimgi quzdorlik davlatlariga ham xosdir.

Urush va tinchlik haqidagi masalalarini hal qilish, xorijiy davlatlar bilan muzokaralar olib borish, mazkur muzokaralar bo'yicha so'nggi qaror qabul qilish, diplomatik missiyalar, chet davlatlarga elchilar tayinlash va boshqa shu kabi masalalar, Qadimgi Rimda Senatning vazifalari doirasiga kirar edi.

Tashqi siyosat bobida oliy vazifalarning yuqori mavqeli davlat organlari tomonidan bajarilishi - feodalizm davri uchun xos bo'limgan holatdir. Chunki feodal davlatning tipik shakli monarxiya hisoblanadi.

Boshqaruvning respublika shakli joriy bo'lishi bilan va konstitustiyalarda monarxizmga, xususan uning mutlaqlig ko'rinishiga qarshi saylanishi davlat hokimiyati organlari ichki va tashqi siyosat sohasidagi rasmiy organ deb e'lon qilindi.

Davlatda demokratik institutlarning rivojlanishi va huquqiy me'yorlarining o'sishi sharoitida, ya'ni qonunchilik natijasida, xalqaro ma'muriy bitimlar va bitimlarni ajratish natijasida parlamentlarning tashqi aloqalar sohasidagi ahamiyati yana ham oshmoqda.

Parlamentning yuridik organlari hisoblangan tashqi ishlar bo'yicha turli komissiya va komitetlar asosida ijroiya hokimiyatning takliflarini qo'llab-quvvatlab, parlamentning hukumat organlarini nazorat qilishni ta'minlaydi. Bunga parlamentning tashqi ishlar bo'yicha komissiya va komitetlariga kiruvchi deputatlarni shaxsan tanlash orqali erishiladi.

Shunga qaramay, boshqaruvning respublika shakli hozirda barcha davlatlarda konstitusion parlamentlar tashqi aloqalar bo'yicha oliy organ sanaladi. Ularning vazifalari doirasiga urush va tinchlik masalalarini hal etish, ba'zi davlatlarda, hatto boshqa davlatga ketadigan elchilarni tasdiqlash (masalan AQShda bu vazifani senat bajaradi) kabi kardinal masalalarini hal etish kiradi.

Boshqaruvchi monarxiya shakli qo'llanadigan davlatlarda tashqi aloqalar bo'yicha oliy davlat organi rasman monarxiya qiroq yoki imperator sanaladi. Konstitusion monarxiyalarda uning hokimiyati rasman parlamentdan iborat bo'lib, hozirgi paytda bu cheklash hukumat organlari foydasiga xizmat qiladi.

Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari demokratik davatlarda tamomila boshqacha ahamiyatga egadir.

Tashqi aloqalar bo'yicha ikkinchi organ - yagona yoxud kollegial davlat boshlig'i hisoblanadi. Respublika boshqaruvi amal qiluvchi davatlarda davlat boshlig'i - odatda prezident sanaladi, monarxiyaga asoslangan davatlarda esa monarx davlat boshlig'i hisolanadi.

8.4. Tashqi aloqalarning xorijiy organlari.

Tashqi aloqalar xorijiy organlarini ikki toifaga ajratish mumkin: 1) doimiy organlar va 2) muvaqqat organlar. Doimiy organlar - chet davatlarda o'z davlati manfaatini ifodalab, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organlar.

Bularga elchixonalar, missiyalar va xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalar, chet elga jo'natiluvchi alohida vakillar, shu bilan birga xalqaro anjumanlar, komissiyalardagi kuzatuvchilar kiradi.

Tashqi aloqalar doimiy xorijiy organlari o'z faoliyati, ular bajarushi vazifalar nuqtai nazaridan diplomatik organlar sifatida baholanishi mumkin. Masalan, elchixonalar, BMT huzuridagi vakolatxonalar missiyalari shular jumlasidandir. Ushbu doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organlar siyosiy xarakterga ega bo'lib, siyosiy vazifalarni bajaradi va diplomatik vakolatxonalarining barcha huquqlaridan foydalanadilar. Konsulliklar ulardan farqli o'laroq diplomatik vakolatxona hisoblanmaydi. Texnik yoki maxsus ko'rgazmalar, kongresslar ishtirokchilari ham diplomatik xarakterga ega bo'lmay, ular diplomatik pasportga ega emas, balki xorijga umumfuqaro pasporti bilan chiqariladilar. Bunday vakolatxonalar doimiy yoki muvaqqat xarakterda bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, vazifasiga ko'ra tashqi siyosatning xorijiy davlat organlari diplomatik yoki nodiplomatik organ bo'lishi mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilgan tashqi aloqa organlari davlat hokimiyatiga ega bo'lgan muayyan manfaatlarni ifoda qiluvchi davlat vositasi ekanligini ta'kidlash lozim.

Davlat tashqi ishlar vazirligi markaziy apparatining muhim tizimi diplomatik rahbarlik nuqtai nazaridan operativ diplomatik bo'limlardan iborat.

Faoliyati, xarakteri jihatidan bo'limlarni hududiy va funkstional operativ organlarga ajratish mumkin. Hududiy bo'limlar muayyan guruh davlatlari bilan tashqi aloqalar masalalarini o'rganadi va kuzatib boradi. Davlatlar guruhi ularning mintaqaviy xususiyatiga ko'ra tashkil qilinadi. Masalan, Evropa bo'limlari, AQSh bo'limlari, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'limi, Afrika bo'limi, Xitoy bo'limi va boshqalar. Markaziy apparat funkstional bo'limlarini alohida ajratish ko'p davlatlarda qabul qilingan holatdir. Bunga quyidagi bo'limlar kiradi: Konsullik boshqarmasi, protokol bo'limi, shartnoma huquqiy bo'lim, matbuot bo'limi, xalqaro va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bo'limi, madaniy aloqalar bo'limi, tashqi siyosiy tadbirlarni rejalashtirish bo'limi, umumiy xalqaro masalalar boshqarmasi.

Funkstional bo'limlar faoliyatini shartnoma-huquqiy va protokol bo'limi misolida ko'rish mumkin.

Shartnoma-huquqiy bo'lim barcha shartnoma va bitimlarni rasmiylashtiradi: shartnomalar matni ustida ishlaydi, shartnoma va bitimlarda davlat huquqlarini kamsituvchi shartlari bo'lmasligini nazorat qiladi, ikkinchi tomondan imzolanadigan shartnoma va bitimlar xalqaro huquqining asosiy qoidalariga zid kelmasligi lozim. Buning uchun tekshiruv o'tkazish kerak. Bundan tashqari, shartnomalar muhim xalqaro hujjat bo'lib, shartnoma matnidagi har bir belgi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki o'z o'rnida qo'llanmagan tinish belgisi (vergul) matn mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Shartnoma-huquqiy bo'lim tasarrufiga davlatlar o'rtasidagi chegaralar bilan bog'liq masalalar ham kiradi. Yillar davomida olib borilgan katta va murakkab ishlar natijasida qo'shni davlalar o'rtasidagi u yoki bu chegaralar aniqlanadi. Davlat chegaralarining barcha xaritalari barcha davlatlar Tashqi ishlar vazirliklarining shartnoma-huquqiy bo'limlarida saqlanadi.

Shartnoma-huquqiy bo'lim shu bilan birga xalqaro huquq masalalari bilan bog'liq bo'lgan, bayonat va boshqa diplomatik hujjatlarni tayyorlash va ko'rib chiqishda ishtirok etadi. U tezkor-diplomatik boshqarmalarga huquqiy maslahatlar beradi va xalqaro kengashlar, anjumanlar, urashuvlar tayyorlash va o'tkazishda qatnashadi. Tashqi ishlar vazirligi shartnoma-huquqiy boshqarmasining o'rni va ahamiyati o'sib bormoqda. Chunki xalqaro munosabatlarning rivojlanishi ko'pincha xalqaro huquqiy asoslarni talab qiladi. Yangi sharoitdagi davlatlararo munosabatlarning xalqaro huquqiy me'yorlarini ishlab chiqish, agressiya, xalqaro konvenstiyalarning yangicha ishlanmalari, diplomatik aloqalar konvenstiyasi, dengiz huquqiy konvenstiyasi shartnomasi huquqiy boshqarma ishining muhim tarmog'i hisoblanib, uning faoliyatining ajralmas qismidir.

Bobning qisqacha mazmuni

Xalqaro munosbatlar, ayniqla ko'p tamonlama munosabatlar rivojlanishi jarayonida davlatlar maxsus xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida "xalqaro va davlatlararo tashqi aloqalar organlarini ta'sis etadilar. Xalqaro munosabatlarning suveren qatnashchisi bo'lgan davlatlar tomonidan tuziladigan davlatlararo tashqi aloqalar organlari sirasiga eng avvalo xalqaro tashkilotlar kiradi. Tashqi aloqalar doimiy xorijiy organlari o'z faoliyati, ular bajarushi vazifalar nuqtai nazaridan diplomatik organlar sifatida baholanishi mumkin.

Tayanch iboralar: xalqaro tashkilotlar, davlat tashqi aloqalar organlari, BMTning tuzilishi, davlatning xalqaro munosabatlari, xalqaro ixtisoslashtirilgan idoralararo tashkilotlar (YuNESKO, SST, MMXT, YuNESIF, YuNKTAD va boshqalar).

Nazorat savollari:

Xalqaro aloqalarning zamonaviy ko'rinishlari va ularning amaliy ahamiyati haqida to'xtalib o'ting?

Ko'p tomonlama va ikki tomonlama siyosiy kelishuvlar to'g'risida tushuncha bering?

Davlatlararo tashqi aloqalar bilan shug'ullanuvchi hukumat tashkilotlari haqida ma'lumot bering?

Xalqaro anjumanlarni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar:

Deklorastiya o prinstipax mejdunarodnogo prava, prinyataya Generalnoy Assambliey OON 24 oktyabrya 1970 g.

Zaklyuchitelniy akt Sovetaniya po bezopasnosti i sotrudnichestvu v Evrope ot 1 avgusta 1975 g.

Borunkov A.F. Diplomaticheskiy protokol v Rossii i diplomaticheskiy etiket.
– M., 1993.

Qosimov A.M. Diplomatik va konsullik xizmati. - Toshkent, 1998.

Lekstionniy material podborka gazet i jurnalov, materiali Tashkentskoy vstrechi gruppi "6+2" po Afganistanu pod egidoy OON.

Narodnoe slovo: 1992, 2, 16 marta;

2000, 23 yanvarya;

2001, 7 aprelya, 6 iyunya;

7. Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy sterimonal i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.
8. Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.mfer.uz

www.jahon.mfa.uz

www.edu.uz.

www.unctad.org

www.mgimo.ru

www.cer.uz

9-bob. Xalqaro anjumanlar va ularning davlatlar tashqi siyosatida

9.1. Tashqi siyosiy muzokaralar

Oliy darajadagi muzokaralar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bunday tadbirlar hozirgi paytda muhim ahamiyatga ega. Chunki xalqaro munosabatlar va ular bilan bog'liq masalalar barcha mamlakatlar siyosiy hayotida katta o'rinn tutadi.

Bunday muzokaralarni o'tkazish tajribasi yangi suveren davlatlar diplomatiyasining muhim va samarali vositalaridan biri bo'lib qoldi.

Yosh mustaqil davlat bo'lgan O'zbekiston jahon siyosatida mustaqil eshtirok etmoqda, uning pozistiyalari mintaqa va jahon miqyosidagi qarorlarni qabul qilishda hisobga olinmoqda. O'zbekiston singari yosh mustaqil davlatlarning siyosiy faoliyati hozirgi paytdagi jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning muhim omili hisoblanadi. Ularni hisobga olmay turib, xalqaro xayotdagi muhim voqealarni xolis baholash, mamlakat tashqi siyosatini to'la tasavvur qilish mumkin emas. Har bir davlatning tashqi siyosiy faoliyati uning milliy, siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun muhim ahamiyatga egadir.

So'nggi yillardagi xalqaro aloqalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mustaqil tashqi siyosat olib borish, jahon xamjamiyatiga kirishning o'z yo'llarini ishlab chiqish, davlatlararo munosabatlardagi ustuvor yo'naliishlarni belgilash, ularning taraqqiyoti, teng huquqlilik asosida tinch-totuv yashash, davlatlararo teng huquqli munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlik bir qancha ichki va tashqi siyosiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Yangi suveren davlatlar hukumati singari O'zbekiston rahbariyati ham so'nggi yillarda muzokaralar olib borish, ularda ishtirok etish tajribasiga ega bo'ldi, chunki ular bir qancha xalqaro uchrashuv va anjumanlarda qatnashdilar. Ayniqsa, iqtisodiy hamkorlik masalalarini hal qilishga va xo'jalik muammolari ko'rib chiqilgan anjuman va uchrashuvlar, MDH davlatlari bilan o'zaro munosabatlar xususidagi tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Aynan O'zbekiston Respublikasining tashabbusi bilan

iqtisodiy-siyosiy hamkorlik masalalariga bog'liq bir qator xalqaro va mintaqaviy tadbirlar o'tkazildi.

Muzokaralarda ishtirok etuvchi har bir diplomat xalqaro amaliyotda muzokaralar jarayonining to'rtta bosqichi o'z tasdig'ini topganligini chuqr anglab olishi zarur:

Muzokaralarga tayyorgarlik bosqichi. Bunda qo'shma muzokaralar jarayonida tomonlar o'z qarashlarini aniq ifodalashi va o'z strategiyalarini belgilab olishlari zarur.

Boshlang'ich pozistiyani tanlash. Odatda muzokaralar ikki tomonning o'z xohish-istiklari, manfaatlarini ifodalashdan boshlanadi. Aniq faktlar va prinstipial argumentlarga asoslangan holda tomonlar o'z pozistiyalarini aniq belgilaydilar va uni ma'lum qiladilar. Bunday vaziyatlarda tomonlar bir-birining so'zini bo'lib qo'ymasligi va fikrlarini hurmat qilishlari zarur.

Kelishuvga erishish. Bunda tomonlar manfaatlarni ifodalashda bir-biriga yon berishi va o'zaro til topa olishi kerak. Agar tortishuv qaltis vaziyatga olib kelsada, tomonlar emostiyadan saqlanishlari kerak bo'ladi.

Boshi berk ko'chaga kirib qolish va muzokaraning yakunlanishi. Muzokaralarning oxirgi bosqichida boshi berk ko'chaga kirib qolish holatidan boshlanishi mumkin. Qadimgi greklar aytganidek: "Yon bera olsang – g'olib chiqasan". Til topishish – muzokaralarning asosidir. Bunday vaziyatda ikkala tomon ham g'alabaga erisha oladi.

9.2. Xalqaro kengash va anjumanlarni tayyorlash hamda o'tkazish tartibi

Har bir xalqaro uchrashuvning tayyorlanishida uning natijasi o'laroq qanday maqsadlarga erishish mumkinligini hisobga olish kerak.

Xalqaro anjuman yoki kengash chaqirish yoki taklif qilish tashabbusi alohida davlatlar guruhlari va bunday vakolatlarga ega bo'lgan xalqaro tashkilotga mansubdir.

Har bir davlatda xalqaro anjuman yoki kengash chaqirish tashqi aloqalar organlari, davlat boshlig'i, hukumat boshlig'i, tashqi ishlar vaziri yoki hukumati

tomonidan amalga oshiriladi. Shunday tadbirlarni o'tkazish vakolati Bosh Assambleya, Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash, BMT Xavfsizlik Kengashiga hamda ixtisoslashtirilgan organlarga berilgan.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan kengash chaqirilganda ishtirokchilar doirasi va qatnashish shakli bo'yicha muammolar bo'lmaydi, chunki mazkur tashkilot Nizomi va uning qatnashchilari tomonidan bu masala hal qilinadi. Mustaqil chaqirilgan xalqaro anjumanlar yoki kengash qatnashchilari masalasi boshqacha xususiyatga ega bo'ladi. Bunday kengashlar chaqirishda uning qatnashchilari oldindan kelishib olinishi lozim.

Bu juda muhim masala bo'lib, uni hal qilmasdan anjumanni tashkil qilish mumkin emas. Xalqaro anjumanlarning ishtirokchilari suveren davlatlarga na bo'lishi mumkin. Anjumanlarda qatnashish bilan bog'liq bo'lgan yana bir masala davlatlar vakillarining qatnashuvi va ishtirok etish shakli masalasidir. Xalqaro anjumanlarda ishtirok huquqini davlatlar o'zining vakolatli organlari yoki maxsus vakillari vositasida bayon qiladilar.

Xalqaro uchrashuvlar va anjumanlarning kun tartibini belgilashda manfaatdor mamlakatlar har doim kun tartibiga qo'yilgan masalalar hal qilinishi istiqbollarini hisobga oladilar. Kun tartibi odatda avvaldan kelishib olinadi, boshqa hollarda esa kun tartibi diplomatik yo'llar bilan kelishiladi. Shunday qilib, xalqaro anjuman yoki kengash chaqirilishining birinchi bosqichi kun tartibini kelishib olishdan iborat bo'lib, bu tadbir diplomatik yo'l bilan oldindan o'tkaziladigan muzokaralarda amalga oshiriladi.

Ma'lumki, Evropada xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan tadbirning kun tartibini va boshqa masalalarni avvaldan kelishib olish uchun Evropadagi 35 mamlakat vakillarining maslahat kengashlari o'tkazilgan va u 7 oy davom etgan.

Odatda uchrashuvlar, kengashlar va konferenstiyalar natijasida u yoki bu shartnomalar, bitimlar (konvenstiyalar) tuziladi hamda ular kirish qismi (preamble) bilan boshlanadi. Bu qismda shartnoma qatnashchilari, vazifalar,

maqsadlar, shartnomani imzolovchi vakillar xususida fikr bildiriladi. Bundan tashqari:

tomonlar majburiyatlari haqidagi moddalar;

shartnomaning kuchga kirish sanasi va amal qilish muddati haqidagi moddalar;

imzolash joyi va sanasi to'liq ko'rsatilishi lozim;

davlat vakilining imzosi va muhri;

shartnama va bitimlardan tashqari ularga ilova qilinuvchi protokollar ham imzolanish hollari kuzatiladi;

ratifikastiyalash tartibi va ratifikastiya yorliqlarini almashtirish joyi va muddati haqidagi modda.

Xalqaro uchrashuv va anjumanlar paytidagi muzokaralarning yakuni qo'shma deklarastiyalarda aks etadi. Mazkur hujjat muzokaralar qatnashchilari tomonidan imzolanib, undagi shartnomalarda umumiy tarzda qatnashchilarning pozistiyasi va ularning u yoki bu siyosiy masalalar bo'yicha qarorlari aks ettiriladi.

9.3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning faoliyati

BMT va butunjahon ixtisoslashgan muassasalari xalqaro tashkilotlarning alohida tipi sifatida tan olinar ekan, faqat uning qatnashchilarigina nazarda tutilmaydi, albatta BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari qatnashuvchi davlatlarning miqdoriga ko'ra emas, balki yuqorida sanab o'tilgan xalqaro tashkilotlar tipidan ayrim farqli, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

BMTga bir-biriga qarama-qarshi pozistiyada bo'lgan davlatlar ham tenglik asosida a'zo bo'ladilar.

BMT 2-jahon urushidan so'ng tashkil qilingan bo'lib, uning asosiy vazifasi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash va ta'minlashdir.

BMTning Nizomi 1945 yil 26 iyunda San-Franstisko shahrida o'tkazilgan anjumanda imzolangan va shu yilning 24 oktyabridan e'tiboran kuchga kirgan.

BMT Nizomi preambula, 19 bob va nizomning tarkibiy qismi bo'lgan Xalqaro Sud statusidan iborat.

BMT Nizomi uzoq vaqt davomida turli yo'naliishlar o'rtasidagi kurash sharoitida ishlab chiqildi. U dastlab 1944 yil Dumbarton-Oksdag'i anjumanda tasdiqlangan edi. Nizomda BMTning birinchi maqsadi quyidagicha ifodalangan: "O'sib kelayotgan avlodni urush ofatidan xalos qilish. Aks holda bizning hayotimizda tuzatib bo'lmaydigan kulfat ro'y beradi". "Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash". (Nizomning 2-moddasi).

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash bilan birga BMT Nizomida mazkur tashkilotning maqsadlari sifatida teng huquqlilik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinstipini (1-modda, 2-band) hurmatlash asosida davlatlararo do'stona munosabatlarni rivojlantirish ham ko'rsatib o'tilgan. BMT faoliyatining asosiy prinstiplari quyidagilardan iborat:

davlatlarning suveren tengligi prinstipi (1-band, 2-modda);

davlatlarning BMT Nizomi bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarini halol bajarishlari (3-band, 2-modda);

xalqaro bahslarning tinch yo'l bilan hal etilishi majburiyati (3-band, 2-modda);

boshqa davlat yoki davlatlarning hududiy butunligi va siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni qo'llashdan voz kechish.

Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash prinstipi, BMT Nizomining BMT maqsadlari aks etgan moddasiga kiritilgan bo'lib, u xalqaro tinchlikni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va amalga oshirish prinstipi bo'lib ham hisoblanadi.

Hozirgi kunda BMT muhim xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan va katnashchi davlatlar uchun xalqaro masalalarni hal etishda asosiy anjuman hisoblanadi.

Davlatlarning vazifasi shundan iboratki, ular BMT Nizomining asosiy qoidalariga amal qilgan holda xalqlar o'rtasida tinchlik va hamkorlikni himoya

qilishlari lozim. BMT tinchlik va hamkorlik asosida jahon mamlakatlarini birlashtiruvchi tashkilot sifatida tuzilgan. Bu yo'nalishdagi faoliyat BMT Nizomiga a'zo mamlakatlar oldiga muhim vazifalar quyadi.

Nizomga muvofiq BMTning asosiy organlari quyidagilardan iborat:

BMT Bosh Assambleyasi;

BMT Xavfsizlik Kengashi;

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash;

BMT Xalqaro Sudi;

BMT Kotibiyati;

Vasiylik bo'yicha Kengash.

BMT Bosh Assambleyasi uning a'zosi bo'lgan barcha davlatlar vakillaridan iborat. Uning organlari kompetenstiyasida bo'lgan istalgan masalalarni ko'rib chiqish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Xavfsizlik Kengashi ko'rib chiqishi mumkin bo'lgan masalalar bundan mustasno. Xususan, Bosh Assambleya quyidagi vakolatlarga ega:

- xalqaro hamkorlik masalalari va xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashga taalluqli barcha masalalarni muhokama qilish;
- BMT a'zolariga tavsiyalar berish va xavfsizlik Kengashi diqqatini xalqaro tinchlik, xavfsizlikka tahdid etuvchi vaziyatlarga qaratish;
- barcha organlarning ma'ruzalarini ko'rib chiqish;
- tashkilot byudjetini tasdiqlash.

Nizomning bir qator boshqa moddalarida va uning asosida Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan qarorlarda uning umumiyl vazifasi atroflicha talqin etilgan. Bosh Assambleya Xavfsizlik Kengashining, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashning doimiy bo'limgan a'zolarini va boshqa organlarning rahbar a'zolarini ham saylaydi. Bundan tashqari BMT a'zoligiga qabul qilish, undan chiqarish va shunga o'xshash boshqa bir qator muhim masalalarni ko'rib chiqadi. Bu kabi muhim masalalar bo'yicha qaror Bosh Assambleyada etarli ovozga ega bo'lgandagina qabul qilinadi.

Bosh Assambleyaning ishi odatda sessiya tartibida bo'lib, yilda bir marta yig'iladi.

Xavfsizlik Kengashi zimmasiga Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash vazifasi yuklatilgan (1-band). O'z vazifalarini bajarishda "Xavfsizlik Kengashi BMT maqsadlari va prinstiplari asosida faoliyat ko'rsatadi" (2-band). Xavfsizlik Kengashining vazifa va vakolatlari Nizomning 24-26 moddalarida bayon qilingan.

Xavfsizlik Kengashi tarkibida 15 ta a'zo mamlakat bo'lib, ulardan beshtasi doimiydir. Mazkur besh a'zoning rozilgisiz Kengashda birorta ham qaror qabul qilinishi mumkin emas. Ustavning 27-moddasida barcha qarorlar qabul qilinishida ushbu 5 a'zoning yakdilligi talab qilinadi.

Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolarining yakdillik prinstipi BMTning bu muhim vazifani bajarishidagi asosiy shartidir. Mazkur prinstipning buzilishi BMTning butun faoliyati jarayonini, uning davlatlarning teng huquqli munosabatlarini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilot sifatida yo'qqa chiqaradi.

BMTning yana bir organi-Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) dir. Uning sessiyalari muntazam ravishda bir yilda 2 marta chaqiriladi. EKOSOS iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot bo'yicha asosiy organ bo'lib, Bosh Assambleyaga jahon taraqqiyotining iqtisodiy masalalari bo'yicha o'z tavsiyalarini taqdim etadi.

EKOSOSning butun faoliyati insonning turmush darajasini ko'tarish, ularning jinsi, irqi, dini, tilidan qa'tiy nazar ajratilmaslikka qaratilishi kerak. EKOSOS Bosh Assambleya sessiyasida saylanuvchi doimiy apparatga ega.

BMTning asosiy organlaridan yana biri Xalqaro Sud bo'lib, u BMT Nizomiga muvofiq belgilangan. Xalqaro Sud uning asosiy organi sanaladi. U mustaqil sudyalar kollegiyasidan iborat bo'lib, mazkur sudyalar qaysi davlat fuqaroligidan qa'tiy nazar yuksak ma'naviyat egasi bo'lган, mashhur huquqshunos va jahonda obro'li kishilardan saylanadi.

Bobning qisqacha mazmuni

Xalqaro munosabatlar bilan bog'liq masalalar barcha mamlakatlar siyosiy hayotida katta o'rin tutadi. Oliy darajadagi muzokaralarni o'tkazish tajribasi yangi suveren davlatlar diplomatiyasining muhim va samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro aloqalar sohasida mustaqil tashqi siyosat olib borish, jahon xamjamiyatiga kirishning o'z yo'llarini ishlab chiqish, davlatlararo munosabatlardagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash, ularning taraqqiyoti, teng huquqlilik asosida tinch-totuv yashash, davlatlararo teng huquqli munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlik bir qancha ichki va tashqi siyosiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Har bir xalqaro uchrashuvnga tayyorgarlik ko'rish avvalida qanday maqsadlarga erishish mumkinligini hisobga olish zarur.

Tayanch iboralar: Xalqaro tashkilotlar, davlat tashqi aloqalar organlari, BMT ning tuzilishi, davlatning xalqaro munosabatlarida xalqaro tashkilotlar, xalqaro ixtisoslashtirilgan idoralararo tashkilotlar (YuENSKR, SST, MMXT, YuNESIF, YuNKTAD va boshqalar).

Nazorat savollari:

Xalqaro aloqalarning zamonaviy shakllari va ularning amaliy ahamiyati haqida ma'lumot bering.

Ko'p tomonlama va ikki tomonlama siyosiy kelishuvlarda qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?

BMT va uning ixtisoslashgan idoralarining xalqaro siyosiy maydondagi nufuzini qanday baholaysiz?

BMT xalqaro sudi va uning faoliyat yuritish mexanizmi haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

Mastenbruk V. Peregorov. – Kaluga, 1993.

Deklorastiya o prinzipax mejdunarodnogo prava, prinyataya Generalnoy Assambliey OON 24 oktyabrya 1970 g.

Lekstionniy material podborka gazet i журналов, materiali Tashkentskoy vstrechi gruppi “6+2” po Afganistanu pod egidoy OON.

Narodnoe slovo: 1992, 2, 16 marta;

2000, 23 yanvarya;

2001, 7 aprelya, 6 iyunya;

2002, 13, 14, 15, 16 marta.

6. Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.
7. Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy sterimonal i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.
8. Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.: Mejdunar. otnosheniya, 2003.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.mfer.uz

www.jahon.mfa.uz

www.edu.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

www.cer.uz

10-bob. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning diplomatik xizmati va uning asosiy yo'nalishlari

10.1. AQSh va Buyuk Britaniya diplomatik vakolatxonaları

Mustaqil respublikamizning tashqi siyosatini tobora takomillashtirishda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning diplomatik xizmati yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ayniqsa AQSh, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda diplomatik xizmat yuksak darajada tashkil qilingan. Osiyo va Afrikadagi ba'zi davlatlarning diplomatik xizmatida ham ibrat oladigan tomonlari mavjud bo'lib, buni biz keyingi paragrafda Hindiston davlati misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

AQShning chet eldag'i diplomatik xizmatlari juda sertarmoqdir. Mazkur davlat, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida diplomatik va konsullik vakolatxonalariga ega. Diplomatik vakolatxonalardan tashqari AQSh ko'pgina mamlakatlarda turli agentliklar va tashkilotlarning vakolatxonalarini ochgan.

Amerika elchixonalari AQSh diplomatik apparatida etakchi va yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. Mazkur elchixonalar salmoqli vakolatxonalarga ega bo'lib, mamlakatning xorijdagi tashqi siyosat yo'nalishini amalga oshirishda asosiy mas'uliyat ularga yuklanadi.

Amerika elchixonalarining tuzilishi boshqa davlatlar diplomatik vakolatxonalari tuzilishiga o'xshashdir, biroq o'ziga xos xususiyatlari ham bor. Ulardan eng muhimi elchixona iqtisodiy apparatining nisbatan katta va axborot xizmati ham nisbatan keng tarmoqlidir.

Odatda, Amerika elchixonasi ma'muriy, iqtisodiy va siyosiy bo'limlardan tashkil topgan. Shu bilan birga konsullik, axborot va madaniy aloqalar, harbiy attashe apparati, katta harbiy attashe, dengiz attashesi, xalqaro taraqqiyot agentligi ("Tinchlik korpusi") mavjud.

Siyosiy, iqtisodiy va axborot bo'limlari kabi yirik bo'limlarda tajribali diplomatlar faoliyat ko'rsatishadi.

Amerika elchixonalari, missiyalari, konsulliklar, shu bilan birga maxsus xizmatlarning qator xodimlari maxsus razvedka topshiriqlarini bajaradilar, AQSh davlat manfaatlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olib turish uchun davlat xizmatchilari va jamoa arboblari bilan doimiy ravishda keng aloqalar o'rnatadi. Xorijdagi Amerika elchixonalari qo'llaydigan usullar dunyoning etakchi davlatlaridan bo'lgan AQSh tashqi siyosati va diplomatiyasining umumiy yo'nalishini aks ettiradi.

10.2. Germaniya diplomatik xizmati

Davlat va millat xizmatidagi konstitusion tizim, professionallik, tanlov asosidagi qabul, haqqoniylik, martaba GFR diplomatik xizmatining asosiy negizi hisoblanadi.

Davlatning diplomatik xizmatini isloh qilishdan asosiy maqsad: tashqi ishlar idorasini ish faoliyatining foydalilik darajasini, tarmoqlararo ish vazifalarini va mansablarni oqilonan to'g'ri taqsimlash orqali ko'tarish, ishchi o'rinxarini tashkil qilish va zamonaviy orgtexnikadan foydalanishning yuqori foydalilik jihatlarini joriy etishdan iborat.

GFR diplomatik xizmati odatda juda yuqori natijali, maqsadga yo'naltirilgan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan tashqi siyosat idorasidir. Juda ham qisqa, atigi 130 yillik ish faoliyatiga qaramasdan, Germaniya diplomatiyasi va uning professional xizmat ko'rsatuvchi xodimlari qiyin siyosiy jarayonlarda o'zining ko'p tomonlama faoliyat tajribasiga suyanib ish yuritishadi. Germaniya diplomatiyasi o'zining 130 yillik ish faoliyati davomida ikki marta mamlakatni birlashtirish muammosini hal qilishi barobarida, mamlakatning ikki marta jahon urushida qatnashishi oqibatida, ayniqsa ikkinchi jahon urushidagi og'ir mag'lubiyatidan keyin uning tashqi siyosatdagi mavqeini tiklash va mamlakatning dunyodagi obru-e'tiborini yana tiklashga erishdi.

Eng og'ir sinov umumjahon mavqeini qozonish bo'ldi. Bunga ikkinchi jahon urushidan keyingi nastistik tizimga nisbatan jahon ommasining nafrati oshganligi sababli Germaniya siyosatining xalqaro hamkorlikdagi qarashlarini tubdan o'zgartirish, qo'shni mamlakatlar bilan tinchlik bitimlarini tuzish va uni Evropa xafsizlik tizimiga kiritish orqali erishildi.

Germaniya siyosati va tashqi siyosat idorasi jamiyatini rivojlantirishda tarix saboqlarining izi ham o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Bu esa ikkinchi jahon urushadan keyingi nemis diplomatiyasining maqsad va vazifalarini belgilashda inobatga olinib kelindi. Natijada, XX asrning oxirlarida, Germaniya xalqaro diplomatik faoliyat yuritish tizimiga kirishga muvoffaq bo'ldi va G'arbiy Evropa davlatlari ichida etakchi o'rnlardan birini egalladi.

Zamonaviy Germaniya diplomatiyasining tashkil topishi 1949 yilda ikki nemis davlatining, ya'ni GDR bilan GFRning paydo bo'lishidan boshlandi. Bu esa bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Federal kanstler mahkamasi qoshida ittifoqchi Oliy Nazorat Komissiyasi bilan aloqa qiluvchi guruh tashkil qilindi. Avvalambor aloqalar, asosan uchta qudratli g'arb mamlakatlarining Oliy Komissariylari bilan tiklandi. Ammo, 1949 yilning 22 noyabrda Sankt-Petersburg kelishuvi orqali uchta g'arb mamlakati, GFR hukumatiga xorijiy mamlakatlar bilan konsullik va savdo aloqalarini olib borishga imkoniyat ochib berishdi. 1949 yilning noyabr oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining Parijdagi shtab kvartirasida GFRning vakolatxonasi o'z ish faoliyatini boshladi. Ko'p o'tmay Federal kanstler mahkamasida xorijiy mamlakatlardagi iqtisodiy-konsullik vakolatxonalarining ishi bo'yicha «Tashkiliy idora» tuzildi. 1950 yilga kelib GFRning, London, Nyu-York va Parijda Bosh konsullik idorasi faoliyat ko'rsata boshladi va keyinroq esa Stambul, Amsterdam, Bryussel, Rim va Afinada ham asta-sekin konsullik idoralari ochila boshladi. Ushbu yili ya'na federal kanstler mahkamasining aloqalar va tashkiliy idorasi bazasida maxsus bo'linma tashkil qilindi va u tashqi munosabatlar xizmati deb atalib, oldingi tashkil qilingan mahkamaga

qo'shimcha sifatida madaniy aloqalar, protokol va diplomatik kadrlar tayyorlash bo'yicha ish olib borishga mas'ul edi.

GFR Tashqi ishlar vazirligiga – Tashqi ishlar mahkamasi maqomi qaytarildi. Boshlang'ich bosqichda GFR Tashqi ishlar mahkamasining markaziy apparatda 330 ta xodimga (bulardan 129 tasi diplomatlar) va xorijdagi vakolatxonalarda 433 ta xodimga (bulardan 147 tasi diplomatlar) ega edi. 1951 yilga kelib dunyoning 12 ta mamlakati (jumladan: Belgiya, Braziliya, Daniya, Grestiya, Italiya, Kanada, Niderlandiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya va Shvestiya) bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1955 yilda GFR federal kanstleri K. Adenaurning Moskvaga rasmiy tashrifi davomida GFR bilan sobiq SSSR o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish va elchixonalar ochish to'g'risidagi shartnomaga qo'l qo'yildi.

Bunga paralel holda GDR diplomatik xizmati ham tashkil qilinib borildi. Bu esa osonlik bilan kechmadi, chunki g'arb mamlakatlari qo'llab-quvvatlagan «Xalshteyn doktorinasi»ga asosan GDR uzoq vaqt mobaynida sobiq sostialistik lagerdan tashqaridagi mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnata olmadi. Faqat 1970 yilning avgustida Moskvada imzolangan shartnomaga va 1973 yilda ikki nemis davlatining BMTga to'laqonli a'zo bo'lib kirishi orqali «Xalshteyn doktorinasi»ga to'la-to'kis chek qo'yildi va har ikkala nemis davlati xalqaro munosabatlarda teng huquqga ega bo'ldi. Bu davrga kelib esa har ikki nemis davlati diplomatik xizmati to'laqonli muvofiqlashgan edi.

GFR va GDR diplomatik xizmatlari o'zining yuqori professionalligi, tashkilotchiligi, unumliligi, o'z oldida turgan vazifalarni bajarishdagi qat'iyligi bilan ajralib turardi. Ular xalqaro maydonda o'z hukumatlari qo'ygan vazifalarni echishda bor matonat va imkoniyatlarini ishga solib o'zaro raqobatlashar va qattiq qarshi qurashishardi. 1990 yilgi ikki nemis davlatining birlashishi bilan GDRning qisqa diplomatik xizmati tarixiga yakun yasaldi va ushbu soha bilan bog'liq hamma davlat idoralari tarqatib yuborildi.

Ikki nemis davlatning birlashuvi, mamlakatlar potenstialining qo'shilishi kuzatildi, biroq, diplomatik xizmatlar idoralarini birlashtirish imkoniyati

bo'lmadi. GDR diplomatlarining yuqori malakali mutaxasislar, ko'pchiligi ularning juda ham obro'li oliv ma'lumotga egaligi, xorijda juda katta ish tajribasiga egaligi (jumladan xalqaro tashkilotlarda ham) ga qaramasdan, GFR hukumati GDR diplomatlarini zo'rlik bilan tarqatib yubordi. Hatto, GDR diplomatlarini birlashgan Germaniya tashqi siyosat idoralariga ishga olishdan bosh tortishdi, ularning ba'zilarigina, ya'ni bir-ikkita kichik diplomatlari davlat organi tizimiga ishga qabul qilindi xolos.

Xarekterli tomoni shundaki, GFR diplomatik xizmati to'g'risidagi qonun nafaqat uning tuzulishini umumlashtiradi, balki davlatning bir qator tashqi siyosat yo'nalishini ham belgilab beradi. Bular jumlasiga:

Evropada va dunyodagi boshqa millatlarga nisbatan mustahkam tinchlik va haqqoniylik tartibini qo'llab-quvvatlash;

xalqlarning mustahkam va ajralmas inson huquqlarini ta'minlashga har bir jamiyatning asosi sifatida qarash;

xalqaro huquqiy normalariga nisbatan hurmat bilan qarash va uni rivojlantirish;

yagona Evropani barpo etish;

nemis xalqining birligini va ozodligini ta'minlash.

Qonun nemis diplomatik xizmatining status va vazifalarini aniq va ravshan belgilab bergen va unga asosan ularning vazifasi quyidagicha belgilab berilgan:

GFRning xorijdagi manfaatlarini himoyalash;

turli sohalar bilan tashqi aloqalar o'rnatish (qonunda ular aniq ko'rsatilgan) va uning rivojlanishiga ko'maklashish;

hukumatni xorijdagi ahvol va voqeylekning rivojlanishi to'g'risida xabardor qilib borish;

GFR to'g'risida xorijda ma'lumot tarqatish;

xorijdagi nemis fuqarolariga turli xil yordamlar ko'rsatish;

davlat va boshqa ommaviy tashkilotlarning tashqi faoliyatini GFR hukumati siyosati doirasida muvofiqlashtirib borish.

GFR konstitustiyasiga asosan mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi Federal kanstler tomonidan belgilab beriladi.

Germaniya diplomatik xizmati Markaziy apparat – Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi vakolatxonalar – elchixonalar, bosh konsulliklar, xalqaro tashkilotlardagi konsullik va vakolatxonalardan tashkil topgan. Xorijdagi vakolatxonalarning soni doimo talabga, aloqalarning ahvoliga va har bir regiondagi holatga, shuningdek diplomatik korpusning moliyaviy mablag' bilan ta'minlanganligiga qarab o'zgarib turadi. Xususan, 2002 yilgi byudjet rejasiga binoan tashqi siyosat faoliyatiga 2104 mln. evro ajratilgan, bu umum federal byudjet sarfining 0,85 foizini tashkil etadi. Bu mablag'dan 782 mln. evro markaziy apparat faoliyatiga, 562 mln. evro xorijda madaniy aloqalarni olib borishga, 567 mln. evro xalqaro tashkilotlarga ajratilgan badallarni tashkil etadi. Har yili byudjet mablag'larini tasdiqlashda markaziy apparatdagi va xorijda faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning soni inobatga olinadi, jumladan, ularning har bir kategoriysi uchun alohida hisoblar tuziladi. Taftish organlari kadrlarning taqsimlanishi ustidan qattiq nazorat olib borishadi.

Davlatning diplomatik xizmati tizimida 2001 yilda taxminan 9450 ta kishi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, bulardan 2700 tasi markaziy apparatda, 6750 tasi xorijdagi elchixona va vakolatxonalarda faoliyat ko'rsatishgan. Davlatning xorijda 142 ta elchixonaga, 56 ta bosh konsullikga va konsulxonalarga, 12 ta xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakolatxonalarga va 2 ta maxsus vakolatxonaga ega. Bularning soni yuqorida aytib o'tganimizdek holat va sharoitga qarab o'zgarib turishi mumkin.

Modomiki, nemis diplomatik xizmati davlat organining bir qismi hisoblanadi va unga nisbatan mansablar va mansab oylik maoshlarida setka tarifi qo'llaniladi. GFRda asosiy ikkita lavozim guruhi bo'lib – «A» toifa (bunga 16 razryad va klassifikastiya kiradi) va «V» toifa (bunga 11 razryad va klassifikastiya kiradi). «A» toifa uchun progressiv (o'sib boruvchi) miqdor, ya'ni ushbu sohadagi ish faoliyatining uzoqligiga qarab o'sib boruvchi oylik maosh miqdori belgilanadi. «V» toifa uchun yagona qayd qilingan oylik maosh

miqdori belgilangan. Nemis diplomatik xizmati o’z tarkibiga «oddiy xizmatchi» (A1 – A5 toifalari), «o’rta xizmatchi» (A6-A9 toifalari) va «oliy xizmatchi» (A13-A16 va V3, V6, V9, V11 toifalari) guruhi kiradi. Hozirgi zamonaviy Germaniya diplomatik xizmatida oldin faqat aristokratlar oilasidan chiqqanlargina ushbu xizmatda faoliyat ko’rsatishi mumkin edi. Hozirgi davrda esa oddiy xizmatchi oilasidan chiqqanlar ham xizmatga jalb qilinmoqda.

10.3. Osiyo va Afrikadagi ayrim rivojlanayotgan davlatlarning tashqi aloqalarini

Mazkur davlatlarning iqtisodiy, milliy va siyosiy rivojlanishi darajasidagi farq ularning muayyan o’ziga xos tuzilishi va tashqi aloqalar organlari xarakterida ham aks etadi. Bu mamlakatlarning ko’pchiligi o’z o’tmishi belgilarini saqlab qolgan. Shunga muvofiq holda tashqi siyosat bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Biroq mazkur holat davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ham ta’sir ko’rsatmoqda. Hukmron doiralar ichida turli yo’nalishlarning siyosiy kurashlari ko’zga tashlanadi. Mazkur kurashlar turli guruh va birlashmalarning manfaatlarini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, bu davlatlarning tashqi siyosiy apparati ham mamlakatlar singari rivojlanayotganligini ifodalaydi. Bu mahkamalarda taraqqiyeparvar va reakstion kuchlar o’rtasidagi kurash davom etmoqda. Biroq bu davlatlarda ularning kelib chiqishi va taraqqiyotining ob’ektiv shart – sharoitlari bilan belgilanuvchi milliy suverenitet uchun kurash asosiy xususiyatidir. Aynan shu holat birinchi navbatda tashqi siyosat va diplomatiyaning yo’nalishi, shu bilan birga tashqi aloqalar organlarining tuzilishi va diplomat kadrlarning asosiy tarkibini belgilaydi. Shunga ko’ra bu mamlakatlar tashqi aloqa organlarining tashqi siyosatida milliy mustaqillik diplomatiyasini amalga oshirish va yirik davlatlar ta’siriga qarshi kurashga alohida e’tibor beriladi.

Albatta bir paytning o’zida uch qit’a – Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi barcha, xatto ko’pchilik mustaqil davlatlar tashqi aloqa organlarini ko’rib o’tish imkoniyati yo’q. Chunki ular juda ko’p. Shuning uchun

biz ayrim mamlakatlar tashqi siyosat mahkamalarining ish uslubini ko'rib o'tish bilan cheklanamiz.

Hindiston aholisi jihatidan dunyoda ikkinchi o'rinni egallab turgan davlatdir. U ingлиз mustamlakachilarining uzoq davom etgan istibdodidan so'ng, 1947 yilda ozod bo'ldi. U 1950 yilda mustaqil davlat sifatida e'lon qilindi.

1950 yil 26 yanvarda qabul qilingan Hindiston Konstitustiyasiga muvofiq (51-modda) mamlakat tashqi siyosatining prinstiplari quydagilardan iborat:

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni o'rnatish uchun kurashda bevosita qatnashish; Adolatli va o'zaro hurmatga asoslangan davlatlararo munosabatlarni qo'llab-quvatlash;

Xalqaro huquqni hurmat qilish, shartnoma majburiyatlarini bajarish, xalqlar o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rag'batlantirish;

Xalqaro bahslarni arbitraj yo'li bilan hal qilishda hamkorlik qilish.

Hindiston Konstitustiyasiga muvofiq ijroiya hokimiyati Prezident qo'lidadir. Vazirlar Kengashi Prezidentga yordam ko'rsatadi va maslahatlar beradi (74 - modda). Vazirlar, shu jumladan, tashqi ishlar vaziri Prezident tomonidan tayinlanadi. Hindiston shtatlar ittifoqi sifatidagi davlat bo'lib, mazkur ittifoq, aynan qonun chiqaruvchi, Parlament va oliv ijroiya vakili bo'lган Prezident va hokimiyat tasarrufiga tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar bilan bog'liq masalalar kiradi. Prezident va uning nomidan ish olib boruvchi Bosh Vazir mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini belgilaydi va u xalqaro munosabatlarda uning nomidan ish ko'radi.

Tashqi aloqalar sohasida barcha ishlarni olib boruvchi organ Tashqi ishlar vazirligidir. Mazkur idora Hindistonning xorijdagi taxminan 149 vakolatxonalari va xalqaro tashkilotlardagi ayrim vakolatxonalarining faoliyatini nazorat qiladi. Hindistonda tashqi siesiy faoliyat, TIV vazifalari quyidagicha belgilangan: Xorijiy davlatlar bilan tezkor aloqalarni tashkil qilish.

Hindistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari faoliyatiga doimiy rahbarlik qilish.

Turli xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, xorijiy davlatlar bilan tuziladigan shartnoma va bitimlarni tayyorlash.

50 yildan ziyod o’z mustaqilligi davrida Hindiston o’zini tinchlik va xalqaro hamkorlik manfaatlari yo’lida faol harakat qiluvchi, 1954 yilda e’lon qilingan tinch-totuv yashashning 5 prinstipiga amal qiluvchi suveren davlat sifatida namoyon qildi. Hindiston Respublikasi BMTda faol qatnashib, qo’shilmaslik harakatining asoschilaridan biri hisoblanadi. U hamkorlik siyosati tarafdiridir.

Hindiston tashqi ishlar vazirligi boshqa xorijiy davlatlar tashqi siyosat idoralari singari tezkor – hududiy va funkstional bo’limlariga ega.

Tezkor – hududiy bo’limlar guruhiga Afrika mamlakatlari, Amerika, Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va O’rta Sharq, G’arbiy va Sharqiy Evropa mamlakatlari bo’limlari kiradi.

Funkstional bo’limlar tarkibiga BMT, iqtisodiy, protokol, konsullik, shartnoma – huquqiy bo’limlar, tashqi siyosatni rejalashtirish va ma’muriy komitetlar kiradi.

Osiyo va Afrikaning boshqa davlatlari tashqi aloqalar organlari tashqi siyosat vazifalarini bajarishga qaratilgan tuzilish va funkstiyalarga ega. Ular xalqaro hamkorlik va o’z mamlakatlari xavfsizligini ta’minlash bilan bog’liq vazifalarni amalgalashdi.

Bobning qisqacha mazmuni

Tashqi siyosatni takomillashtirishda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning diplomatik xizmati yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda ayniqsa AQSh, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda diplomatik xizmat yuksak darajada tashkil qilingan. Osiyo va Afrikadagi ba’zi davlatlarning diplomatik xizmatida ham ibrat oladigan tomonlari mavjud. Amerika elchixonalarining tuzilishi boshqa davlatlar diplomatik vakolatxonalarini tuzilishiga o’xshash, biroq o’ziga xos xususiyatlariga ega, ularidan eng muhimi elchixona iqtisodiy apparatining nisbatan kattaligi va

axborot xizmati ham nisbatan keng tarmoqliligidir. Germaniya diplomatik xizmati esa davlat va millat xizmatidagi konstitusion tizim, professionallik, tanlov asosidagi qabul, haqqoniylik, martaba GFR diplomatik xizmatining asosiy negizi hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy, milliy va siyosiy rivojlanishi darajasidagi farq ularning muayyan o'ziga xos tuzilishi va tashqi aloqalar organlari xarakterida ham aks etadi. Mazkur mamlakatlarning ko'pchiligi o'z o'tmishi belgilarini saqlab qolgan.

Tayanch iboralar: Rivojlangan davlatlar diplomatik xizmati, AQSh diplomatik vakolatxonalari, AQSh elchixonalarining tuzilishi, Buyuk Britaniya diplomatik xizmati, "Forrin Ofis" ning mohiyati va faoliyati, Osiyo va Afrikaning ayrim rivojlanayotgan davlatlaridagi tashqi aloqalar, Hindiston tashqi siyosati, Afrika davlatlari diplomatiyasi.

Nazorat savollari:

Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar diplomatik xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering?

AQSh diplomatik vakolatxonalari qanday tuzilishga ega?

Buyuk britaniya diplomatik xizmati va "Forrin OFIS" ning faoliyati to'g'risida ma'lumot bering?

Germaniya diplomatik xizmati va uning zamonaviy jihatlari nimalardan iborat?

Afrika davlatlari diplomatiyasining o'ziga xosligi nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar royhati

Asosiy adabiyotlar

Deklorastiya o prinstipax mejdunarodnogo prava, prinyataya Generalnoy Assambliey OON 24 oktyabrya 1970 g.

Zaklyuchitelniy akt Sovetaniya po bezopasnosti i sotrudnichestvu v Evrope ot 1 avgusta 1975 g.

Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.

Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy sterimonal i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.

Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.

Lekstionniy material podborka gazet i jurnalov, materiali Tashkentskoy vstrechi gruppi “6+2” po Afganistanu pod egidoy OON.

Qoshimcha adabiyotlar

Ustav OON.

O’zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi.

O’zbekistonning yangi qonunlari, Toshkent “Adolat” 1993 y.

I.A. Karimov. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida. Toshkent 1997 y.

Feltxem R. Dj. Nastolnaya kniga diplomata. – Minsk, 2000.

Zaxarova L.M., Konovalova A.N. Osnovi diplomaticeskoy i konsulskoy slujb. – Minsk, 2001.

Щетinin V.D. Ekonomicheskaya diplomatiya: Uchebnoe posobie. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2001.

Gulyamov S.S. i dr. Osnovi diplomaticeskoy deyatelnosti Uzbekistana: Uchebnoe posobie. - T., 2002.

Hidoyatov G.A. Osnovi diplomatii. – Toshkent, 2002.

- Vud Dj., J.Serre. Diplomaticheskiy sterimonal i protokol/Per. s angl. Yu.P. Klyukina, V.V. Pastoeva, G.I. Fomina. - Izd. 2. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2003.
- Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya: teoriya praktika. Diplomatiya nauka i iskusstvo: Kurs lekstiy. – 2-e izd., dop. – M.:Mejdunar. Otnosheniya, 2003.
- Satou E. Rukovodstvo po diplomaticeskoy praktike. – M., 1947.
- Chelyadinskiy A.A. Osnovi diplomatii. – Minsk, 1997.
- Bobilov G.V., Zubkov N.N. Osnovi konsulskoy slujbi. – M., 1996.
- Soglashenie o partnerstve i sotrudnichestve mejdju Respublikoy Uzbekistan i Evropeyskim soobhestvom i ego gosudarstvami-chlenami. – Tashkent, 1996.
- Kissenger H. Diplomasy. – London, 1994.
- Mejdunarodnoe pravo. Uchebnik dlya vissix shkol. – M., 1994.
- Borunkov A.F. Diplomaticheskiy protokol v Rossii i diplomaticheskiy etiket. – M., 1993.
- Mastenbruk V. Peregovori. – Kaluga, 1993.
- Israelyan V.L. Diplomati listom k listu. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1990.
- G.V. Babilov. Osnovi diplomaticeskiy i konsulskoy slujbi. Moskva, 1988 g.
- Molochkov F.F. Diplomaticheskiy protokol i diplomaticeskaya praktika. – M., 1987.
- Diplomaticheskiy slovar. T.2. – M., 1986.
- Istoriya politicheskix i pravovix ucheniy//Pod red. V.S. Nersesyanst. – M., 1983.
- Istoriya diplomatii. – M., 1979.
- Zaklyuchitelniy akt Sovezchaniya po bezopasnosti i sotrudnichestvu v Evrope ot 1 avgusta 1975 g.
- Deklarastiya o prinstipax mejdunarodnogo prava, priyataya Generalnoy Assambliey OON 24 oktyabrya 1970 g.

Xidoyatov G.A. Iz istorii anglo-russkix otnosheniy v Sredney Azii v konest XIX v. – T., 1969.

Kambon J. Diplomat. – M., 1946.

Nikolson G. Diplomatiya. – M., 1941.

Lekstionniy material podborka gazet i jurnalov, materiali Tashkentskoy vstrechi gruppi “6+2” po Afganistanu pod egidoy OON.

Narodnoe slovo: 1992, 2, 16 marta;

1993, 27 yanvarya, 10 aprelya, 11 sentyabrya;

1995, 29 dekabrya;

2000, 23 yanvarya;

2001, 7 aprelya, 6 iyunya;

2002, 13, 14, 15, 16 marta.

Internet resurslari:

www.gov.uz

www.mfer.uz

www.jahon.mfa.uz

www.unctad.org

www.mgimo.ru

www.cer.uz

www.review.uz

1-ilova.

«Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar» ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tanlangan namunaviy mavzular ro’xati

1. Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi davlatlarining tashki siyosati va ularning huquqiy me’yoriy asoslari.
2. Mintaqaviy mojoralarning vujudga kelish sabablari.
3. Turli davlatlardagi siyosiy xavf xatarlar (2ta davlat misolida).
8. Markaziy va Sharqiy Evropadagi o’tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli.
9. Globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendenstiyalari.
10. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishning xalqaro amaliyoti.
11. Jahon savdo sashkilotiga a’zo bo’lishning xalqaro tajribasi.

12. Xalqaro iqtisodiy integrastiya va uning milliy xo'jaliklar rivojlanishiga ta'siri.
13. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish bosqichida O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati.
15. O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integrastiyalashuvini chuqurlashtirish istiqbollari.
16. Jahon moliyaviy bozorlarining globallashuvi va O'zbekistonning ushbu jarayonda ishtirok etishining istiqbollari.
17. O'zbekiston iqtisodiyotining XXI asrdagi geosiyosiy mavqeい.
20. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati va jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integrastiyalashuvi.
25. Evropa valyuta ittifoqi va uning iqtisodiy shakllanish bosqichlari.
26. O'zbekiston Respublikasi valyuta tizimining rivojlanishi va uni takomillashtirish yo'llari.
28. Jahon savdo tashkilotining dolzarb vazifalari va muammolari.
29. O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga teng huquqli a'zo bo'lishining muammolari.
30. Birlashgan millatlar tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari va ularning xalqaro savdoni ko'p tomonlama tartibga solish tizimini rivojlantirishdagi roli.
31. Rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi savdosini tartibga solish tizimining xususiyatlari va rivojlanish tendenstiyalari.
32. Xalqaro savdoni ko'p tomonlama tartibga solish tizimini rivojlantirishda xo'jalik xayotining baynalmilallahuvi va globallashuvining ahamiyati.
33. Mintaqaviy iqtisodiy integrastiyasining xalqaro savdoni ko'p tomonlama tartibga solish tizimiga ta'siri.

35. G'arbiy Evropadagi integrastion jarayonlarning zamonaviy tendenstiyalari.
36. Evropa integrastiyaning jahon iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.
37. Evropa Ittifoqi integrastion jarayonlari hozirgi bosqichining xususiyatlari.
38. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro iqtisodiy integrastiyaning ob'ektiv zaruriyati va ahamiyati.
39. Mintaqaviy integrastiyaning asosiy shakllari va savdo-iqtisodiy ittifoqlarining tasnifi.

2-ilova.

“Xalqaro diplomatik munosabatlar” fanidan ilg’or pedagogik texnologiyalarni qo’llash bo'yicha uslubiy ishlanma

Mavzu: Davlat diplomatiyasi, uning asosiy shakllari
va tamoyillari: 2 soat

Tuzuvchi: «”Jahon iqtisodiyoti va XIM” kafedrasi katta o’qit., i.f.n. A.S.Yusupov

1-mavzu: Davlat diplomatiyasi, uning asosiy shakllari va tamoyillari. (2 soat)

Asosiy o’quv savollari:

1. Diplomatiyaning paydo bo’lish tarixi va shakllari.
2. Hozirgi zamon diplomatiyasi va diplomatik xizmati.
3. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

O’qituvchining maqsadi:

Talabalarga diplomatiyaning paydo bo’lishi va tarixiy ko’rinishlari haqida tushuncha berish.

Hozirgi sharoitda diplomatiya va diplomatik xizmatning dunyo mamlakatlari tashqi siyosatidagi tutgan o’rniga xolisona baho berish.

Talabalarga davlat diplomatiyasining asosiy tamoyillari to’g’risida zaruriy tushunchalarini berish.

Xalqaro munosabatlar sohasida davlatlar diplomatiyasining ahamiyati to’g’risidagi siyosatchilar fikrlarini har taraflama asoslash.

Talabalarning asosiy vazifalari:

Diplomatiya – davlat tashqi siyosiy faoliyatning asosi ekanligini aniqlab beradi.

Diplomatiya va diplomatik xizmatning dunyo mamlakatlari tashqi siyosatidagi ahamiyatini asoslab beradi.

Davlat diplomatiyasining asosiy tamoyillari to’g’risida zaruriy tushunchalarga ega bo’ladi.

Xalqaro munosabatlarni tashkil etishda davlatlar diplomatiyasining asosiy strategiyalari to’g’risidagi bilimlarni egallaydi.

Texnologik karta

Ko’riladigan savollar	O’qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
-----------------------	----------------------	------------------

Darsning kirish qismi (5 minut)	O'qituvchi talabalarni darsning mazmuni, ko'ri-ladigan savollar, mustaqil o'qish uchun mavzular va adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi.	Talabalar o'qituvchi bergan ma'lumotlar asosida tegishli yozuvlar qiladilar, darsni o'zlashtirishga hozirlilik ko'radilar.
